

Marifat

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

Xalq ziyolilari gazetasi // 1931-yildan chiqa boshlagan // e-mail: info@marifat.uz // 2026-yil 22-aprel chorshanba №16(9601)



BILIM



TO'G'RI
YONDASHUV



MAQSAD



MUNTAZAM
MEHNAT



NATIJA
VA
YUTUQ

TA'LIM

O'ZGARMOQDA!

2-3 -betlar



MUVAFFAQIYAT

A

K

I

D

O

T

E

M

O'qituvchi
nimani
o'ylaydi?



Har kuni sinfxonam ilmga chanqoq o'quvchilar bilan to'la-di. Darslardan charchasam ham bundan zavq olaman. Uyg'a esa 25-30 ta esse va bir olam duolar bilan qaytaman. O'quvchilarim bilan ularning tilida, samimiy suhbat quraman. Necha yillar avval ta'lim bergan shogirdlarim gul, kitob va shirin so'zlar bilan yo'qlab kelishganda, barcha charchoqlarim unutilib, go'yo yana 18 yoshimga qaytgandek bo'laman.

Ziyoda MAMAJONOVA



O'qituvchilik mahorati-ni oshirish uchun turli seminarlarda qatnashib turaman... Lekin trener, mentor o'qituvchilarning aksariyatining o'ziga ham mahorat oshirish darslari kerak.

Munajat KARIMOVA





Daxldorlik

O'QITUVCHINING KASBIY RIVOJLANISH SOATIDAN BIR LAVHA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan maktablarda "Kasbiy rivojlanish soati" belgilangan. Shunga ko'ra, maktabimizda payshanba – aniq fanlar(matematika va informatika) o'qituvchilaridan tuzilgan metodbirlashma a'zolarining ijodiy faoliyat bilan shug'ullanadigan kuni. Shunday kunlarning birida maktabda matematika va informatika fani o'qituvchilari yig'ildi.

"Bugun o'quvchi shaxsini barkamol etib tarbiyalash har doimgidanda muhim ahamiyat kasb etmoqda", deb gap boshladi Kasbiy rivojlanish soati raisi Salima Olimova. So'zni tajribali ustoz Fotima Abdullayeva davom ettirdi(nafaqada bo'lsa-da, izlanishlar bilan charchamaydigan, ko'p yillik hayotiy va pedagogik tajribaga ega faxriy ustoz):

– Ayrim o'quvchilar maktab ichki tartib-qoidalariga umuman rioya qilmayapti. Maktab formasida emas, telefon olib keladi. Bundan tashqari, birinchi soat tugashi bilan oshxonaga yuguradi. Bu holatlar barchamizga tanish, albatta.

– To'g'ri, bunday o'quvchilar barcha sinfda topiladi, – deb ustozning so'zlarini ma'qulladi yosh, g'ayratli matematika fani o'qituvchisi Jasur Olimov.

– Nega shunday?! Kim aybdor? – dedi Fotima opa gapini davom ettirib.

– Aybdorni so'ramasangiz ham ma'lum-ku, farzandini nazorat qilmaydigan ota-ona-da, – deya ta'kidladi informatika o'qituvchisi Samiraxon Qodirova.

– To'g'ri, – deya uning so'zlariga qo'shildi nafaqa yoshiga yaqinlashib qolgan matematika o'qituvchisi Salima Jalilova.

– Yaxshi, lekin muammoni qanday bartaraf etamiz?

– Har kuni sinfga kirib, rejadagi mavzuni o'quvchilarga tushuntiramiz va baholaymiz. Ko'pincha kichik omillar sabab dars sifati va o'quvchilar bilim olishiga to'siqlar paydo bo'ladi. Xo'sh, bu jarayonda kim aybdor, nima qilsak vaziyat o'nglanadi? Bu borada ko'p yillik tajribam asosidagi fikrlarim bilan o'rtoqlashmoqchiman.

Ma'lumki, geometriyada shunday aksioma mavjud: "Tekislikda yotuvchi ikki nuqta orqali faqat bitta to'g'ri chiziq o'tkazish mumkin". Deylik, birinchi nuqta – uy, ikkinchi nuqta esa maktab bo'lsin. Agar o'quvchi ana shu ikki nuqta orasidagi to'g'ri chiziq bo'ylab risoladagidek harakat qilsa, salbiy xislatlardan yiroq bo'ladi. Ammo bola bolaligiga boradi. Unga nojo'ya harakatlari-yu, intizomi yuzasidan yo'l-yo'riq ko'rsatsangiz, nasihat yoki dakki bersangiz, baribir deyarli o'zgarmaydi.

Uyda bolani har tomonlama ta'minlab qo'ygan ota-ona, maktabda esa ta'lim berishga tayyor bo'lgan ustoz va o'quvchi harakati – tamom, muvaffaqiyatlar ko'p narsa talab qilmaydi aslida!

Ya'ni ba'zi ko'priklar bo'lmasa, insonlar mashaqqatli yo'lining narigi tomonidagi mo'jizani ko'ra olmasligi mumkin. Xuddi shunday, bu ko'prikdan o'tish uchun iroda ham zarur. O'quvchini ke-lajagi sari oydin yo'lga olib chiqadigan oddiygina haqiqat ham mana shu: uy va maktab orasida qurilgan ko'priklar, aslida! Masalan, o'quvchi maktabdan qaytdi. Ma'lum muddatdan so'ng ota-ona uning maktabdagi faoliyati bilan qiziqib, suhbatlashadi va bugungi dars jadvali bo'yicha qanday darslar bo'lgani, o'tilgan mavzularning qayd qilingani, husnixati kabilarni ko'rib chiqib, ertangi kun darslariga tayyorgarligini nazorat qiladi, farzandining tushunmagan joylariga o'zi yoki fan o'qituvchisiga bog'lanish orqali yordam beradi. Ertasi kuni o'quvchi darslarga oldingidan ko'ra mas'uliyatli yondashadi. Har kuni ikki tomonlama muntazam nazorat va ta'lim-tarbiya o'quvchining tez orada ijobiy o'zgarishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, fikrlarimizga hamohang bo'lgan quyidagi aksiomaga ham e'tibor bering:

O'qituvchi minbari

TA'LIM O'ZGARMOQDA!

2024-yil 21-iyun kuni "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qarori qabul qilindi. Qabul qilingan qaror asosida ta'lim sohasida tizimli ishlar yo'lga qo'yildi.

2024-yilning avgust oyidan ta'lim muassasalarida "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish amaliyoti boshlandi. "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari to'g'risida tumanda birinchi tashkil qilingan o'quv seminarida yoshi yetmishga yaqinlashib qolgan ustoz bugungi ta'lim tizimidagi o'zgarishlardan nolib, salbiy fikr bildirdi. O'zi o'qigan davrdagi ta'lim tizimi eng yaxshisi ekanligini uqtirishga urindi. Ta'limdagi o'zgarishlarni qabul qila olmaydigan pedagoglar, afsuski, hamon oramizda uchray turadi.

Shu vaqtda Hazrat Ali (r.a.)ning bir necha asr oldin aytgan quyidagi gapi yodimga tushadi: "Bolalaringizni o'zingiz ulg'aygan zamon talablariga ko'ra emas, ular yashayotgan davr talablariga ko'ra tarbiyalang". Dunyo misli ko'rilmagan shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Zamon yoshlari ko'p sohalarida ilgarilab ketmoqda. O'qituvchi bu taraqqiyotdan ortda qolmasligi, o'z ustida ishlashi, bilimni muttasil oshirib borishi zarur. Ular zimmasida dunyo standartlariga javob beradigan, ilmiy, tarbiyali, tafakkuri, dunyoqarashi keng yoshlarni tarbiyalash vazifasi turibdi. Biz eskicha fikrlasak, eski ta'lim tizimini qo'msak, yana taraqqiyotdan ortda qola boshlaymiz. Bugun faqat bilim va yangiliklarga intilganlarga taraqqiyotga erishmoqda.

Tabiiy fanlar yo'nalishida 2024-2025-o'quv yilida "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarida Singapur davlati ta'lim tajribasi o'rganildi. Singapurlik o'qituvchilar tomonidan trening darslar tashkil qilindi. 2024-yili nashrdan chiqqan 5–6-sinf "Tabiiy fanlar" darsliklari Singapur tajribasi va metodlari asosida yozilgan va bizning milliylikimizga xos tarzda mahalliyashtirilgan. Yangi darsliklar o'quvchiga nafaqat bilim beradi, balki ilmiy izlanishga, olimlardek fikrlashga yo'naltiradi. Darsliklarga ilova sifatida berilgan mashq daftarlari o'quvchilarning olgan bilimlarini mustahkamlash, tajribalar o'tkazishga o'rgatadi. Fanni hayot bilan, amaliyot bilan bog'liq holda o'rganish, atrof-muhitga oqilona munosabatda bo'lish, ilm-fanning insoniyat uchun ahamiyatini anglashga yordam beradi. Darslikdagi "O'ylab ko'ring...", "Birgalikda tadqiq etamiz!", "Muammo-li topshiriq", "Amaliy ishlar", "Bosh-qotirma", "Bilimlar xaritasi" ruknlari ostida berilgan topshiriqlar, kitob dizayni tabiiy fanlarni qiziqish bilan o'rganishga rag'bat uyg'otadi. Tabiiy fanlarni o'qitishda "Savol berish" yondashuvi katta ahamiyatga ega. O'quvchilar tadqiqotlar o'tkazish orqali "Nega?", "Qanday?", "Nima uchun?" degan savollarga ilmiy dalillar asosida javob topadilar. Darsda

o'quvchilarga "Kimlar tadqiqot o'tkazadi?" degan savol bilan murojaat qilaman. "Olimlar ilmiy ishlar ustida tadqiqotlar o'tkazadi" deb javob berishadi. "Sizlar ham tadqiqot o'tkazayotibsiz. Demak, siz yosh olimlarsiz!" deyman.

Dars davomida o'quvchilar mavzuga doir modellar yasaydi. Masalan: "Ovqat hazm qilish sistemasi modelini tayyorlash", "Nafas sistemasi modelini tayyorlash" kabi mavzularda modellar tayyorlash o'quvchilarning qiziqishini oshiradi. O'zi yasab ko'rgan modeli orqali olgan ma'lumotlari umrbod xotirasida qoladi.

"Olimlardek fikrlang, siz tadqiqotchisiz!" degan fikrimga bir o'quvchim o'z hayotidan bir voqea aytib berdi:

– Bizning issiqxonamiz bor. Yoz kunlarining birida issiqxonaga bodring terгани bordim. Tushlik qildik. Ovqatimni yeb bo'lgach, u yerda kaltakesakni ko'rib qoldim. Ovqat yegan kosam bilan uning ustini yopdim. Kosaning chetida kaltakesakning dumi uzilib qoldi. Kosa to'ng'irilgan, ichida kaltakesak, tashqarida dumi qolib ketdi. Dum biroz vaqt qimirlashda davom etdi. Men yana o'z ishim bilan ketdim. Oradan ikki kun o'tgach yana bodring terгани issiqxonaga bordim. Ikki kun oldin qilgan ishim yodimga tushdi. Borib kosani oldim. Ne ko'z bilan ko'rayki, kosaning tagida kaltakesak tirik holatda. Yana yangi dum o'sib chiqqan edi. Tashqarida esa ikki kun oldin uzilgan dum yotardi.

Ustoz, kaltakesakning dumi uzilib ketsa, qayta o'sishi mumkinmi? Inson organizmida ham qayta tiklanishi mumkin bo'lgan organlar bormi?

Tabiiy fanlarni o'rganayotgan yana bir o'quvchimning hikoyasi:

– Uyimiz darvozasi temirdan. Hammamiz ertalab ish, o'qishga ketamiz. Peshin vaqti men maktabdan qaytaman. Ertalab va kechqurun darvozamiz qulflanadi. Tush vaqti maktabdan kelsam, eshik qulfi ishlamayapti. Darvozani ocholmay, ko'chada kutib o'tirgan vaqtlarim bo'ldi. "Nega qulfi ertalab va kechqurun yaxshi ishlaydi?" deb o'ylab o'tirib, temir qiziganda kengayishi yodimga tushdi. Tush vaqti quyosh darvozamizga tushib turardi. Yelim idishda suv oldim, qulflanadigan joyga quydim. Darvoza sovidi. Qulfi bir zumda ochildi.

Ustoz, olgan bilimlarim yordam berdi.

Bu voqealarni tinglab, tadqiqotchilik bolalarni hayot davomida uchraydigan jumboqlar ustida fikrlash va ularga ilmiy javob topishga o'rgatayotganining guvohi bo'lamiz. O'quvchilar olgan bilimlari asosida muammoli vaziyatlarga yechim topmoqda. Demak, "Tabiiy fanlar" darsliklari o'quvchilarni darslikdan tashqari bilim, ma'lumot, axborot to'plashga o'rgatadi. Umuman olganda, yangi metod va darsliklarning ta'limga kirib kelishi darslarning qiziqarli tashkil etilishiga olib kelmoqda. Xususan, chorak va yil yakunida tashkil etilayotgan "Eng yaxshi loyiha ishi" tanlovlari ham o'quvchilarning naqadar izlanuvchan, ixtirochi ekanliklarini ko'rsatmoqda. Ular tomonidan tayyorlangan loyiha ishlarini ko'rib, qoyil qolmaslikning iloji yo'q.

Yurtimiz o'qituvchilarining xorijiy davlatlarda malaka oshirishi uchun im-

“Bir to‘g‘ri chiziqda yotmaydigan uchta nuqta orqali faqat bitta tekislik o‘tkazish mumkin”. Aksiomadagi uchta nuqtani – ustoz, ota-ona(oila), o‘quvchi, deb olib, uning mohiyatini yuqoridagidek yo‘naltiramiz. Bu aksiomada ham oila, maktab va o‘quvchining maqsadi uyg‘unligi barchaning murodini hosil qiladi. Masalan, birinchi barmoq ustoz bo‘lsin, uni tik tutib, kitobdan tekislikni ifodalovchi ko‘rgazma sifatida foydalanamiz, – deb uni tik turgan bir barmog‘i uchiga qo‘ydi. Kitob zum o‘tmay, og‘ib pastga tushdi. – O‘quvchining yetarli darajada bilim olishi uchun faqatgina ustoz harakati yetarli emas ekan. Endi oilani ifodalovchi ikkinchi barmoqni qo‘shamiz va yana kitobni qo‘yamiz. Guvohi bo‘lganingizdek, kitob yana tushib ketdi. Jarayonga o‘quvchining o‘zini jalb qilamiz.

Haqiqatan ham, shunda kitob hech qayoqqa og‘ishmay, ishonchli joylashdi.

– Buni fizika fani ham isbotlaydi. Masalan, elektr toki qanday hosil bo‘ladi? Elektronlarning bir tomonga tartibli harakati natijasida-da! O‘quvchining ham bir tomonga, ya‘ni maqsadlari sari reja bilan tartibli harakati uni albatta, yorug‘likka olib chiqadi. Quyidagi hayotiy voqeaga ham e‘tibor bering-a!

O‘sha payti Jasur ismli o‘quvchim 7-sinfda o‘qirdi. U darslarga kechikib kelar, uy vazifalarini bajarmas, sababsiz dars ham qoldirardi. Bir kuni ko‘chada

uning otasi bilan ko‘rishib qoldik. Salom-alikdan so‘ng u o‘g‘lining o‘qishi haqida gapirib, qo‘lidan telefon tushmasligi, o‘zi esa ertalabdan kechgacha oilasi farovonligi uchun tijorat ishlari bilan bandligi, Jasur onasining gapiga quloq solmasligini aytib qoldi. Men esa otaning yumushlari qanchalik ko‘p bo‘lsa ham farzandi kelajagi uchun vaqt ajratishi kerakligini tushuntirdim.

Oradan kunlar o‘tib, Jasurda ijobiy o‘zgarishlar sezila boshladi. Undagi o‘zgarishni ko‘rib, ishonch bildirdik, talabni oshirdik, lekin mehrni kamaytirmadik! Eng muhimi, Jasurning o‘zi ham shaxsiy imkoniyatini sezdi. Keyinchalik ham harakatlarini susaytirmadi. Hozir u Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 2-kurs talabasi.

Albatta, bola tarbiyasida nazorat, ishonch va shaxsiy mas‘uliyat bir-birini to‘ldirsa, u doim muvaffaqiyatli bo‘ladi. Bundan tashqari, ta‘lim-tarbiyada muvaffaqiyatga erishishda ota-ona, o‘quvchi va ustoz mehnati bir-birini to‘ldiradi. Bu jarayonda har birining ishtiroki muhim va hal qiluvchi deb tushunishimiz lozim.

Kasbiy rivojlanish soati uchun Fotima ustozdan barchamiz birday minnatdor bo‘ldik.

Rahmatulla KARIMOV,

Uchtepa tumanidagi 81-IDUMning matematika fani o‘qituvchisi, O‘zbekiston xalq o‘qituvchisi



koniya yaratilayotgani ham quvonarli holat. Yaponiya, Singapur, Malayziya, Turkiya kabi davlatlar ta‘lim tizimini o‘rganish, tajriba almashish pedagoglar uchun qulay imkoniyat eshiklarini ochdi. Toshkent viloyati pedagogik mahorat markazi xodimlari va Toshkent viloyatining har bir tumanidan bir guruh o‘qituvchilar 2025-yilning dekabr oyida Turkiyaning Aydin universitetida tashkil etilgan o‘quv mashg‘ulotlarida ishtirok etib, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, ta‘lim sifati masalalariga oid nazariy va amaliy bilimlar olib qaytishdi.

“Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarining tashkil etilishi mentorlik faoliyatimga ham o‘zgarishlar olib keldi. A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tomonidan tashkil etilgan trening darslarda ishtirok etib, kasbiy malakamni oshirdim. Institut tomonidan har bir tashkil etilayotgan “Kasbiy rivojlanish kuni”

va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlari uchun o‘quv-metodik qo‘llanmalar berib borilmoqda. Toshkent viloyati pedagogik mahorat markazi xodimlari tomonidan o‘quv-seminarlar tashkil etilib, doimiy metodik yordam ko‘rsatilib kelinmoqda. Kaskad usulida o‘tayotgan tadbirlarda o‘qituvchilar o‘z kasbiy faoliyatiga doir zamonaviy bilim va innovatsiyalar, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganib, o‘quv jarayoniga keng tatbiq etishmoqda. 2025-yili respublika miqyosida ommalashtirilgan ishlarni kuzatar ekanman, o‘qituvchilar yangi metodlarni darslarda faol qo‘llay boshlaganliklarining guvohi bo‘lmoqdaman. Tez orada ta‘limga, ustozlar maqomini yuksaltirishga qaratilayotgan e‘tibor o‘z samarasini beradi.

Sevara AZIMOVA,

Toshkent tumanidagi 9-maktabning oliy toifali geografiya fani o‘qituvchisi, Toshkent tumani tabiiy fanlar mentor o‘qituvchisi, Xalq ta‘limi a‘lochisi



“FLIPPED CLASSROOM” METODI

MUSTAQIL O‘RGANISH IMKONINI BERADI

OTMlarda kredit-modul tizimi sharoitida barcha fanlardan mustaqil ta‘limni tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Xususan, geografiya fanidan mustaqil ta‘limni tashkil etishda “Flipped Classroom” metodi katta ahamiyatga ega.

“Flipped Classroom” metodi

“Flipped Classroom” (Teskari sinf) metodi – an‘anaviy o‘qitish usulining yangi va innovatsion shakli bo‘lib, unda o‘quv jarayoni o‘zgacha tashkil etiladi. Bu metod talabalarga darsdan oldin yangi materialni mustaqil ravishda o‘rganish va dars davomida olingan bilimlarni amaliyotda sinovdan o‘tkazish imkoniyatini yaratadi. Metodning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

Uyda mustaqil o‘rganish. “Flipped Classroom” metodida talabalar darsdan oldin yangi materialni mustaqil o‘rganadi. Bu o‘rganish videodarslar, elektron kitoblar, maqolalar, onlayn kurs va boshqa resurslar yordamida amalga oshiriladi. Geografiya fanida talabalar iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslar, xarita va geografik hududlar haqida bilimlarni uyda o‘rganish orqali materialni o‘z shaxsiy tempiga mos ravishda o‘zlashtiradi.

Darsda faollik va amaliy mashg‘ulotlar. Darsda esa olingan bilimlarni tahlil, muhokama qilish, savollar berish va guruhlarda ishlashga ko‘proq vaqt ajratiladi. Bu talabalarga yangi o‘rganilgan bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, murakkab geografik masalalarni muhokama qilish va yechimini topish imkonini beradi. Masalan, talabalar o‘zlari o‘rganib chiqqan mintaqaning iqlim holatini tahlil qilib, uni global o‘zgarishlar bilan bog‘lashlari mumkin.

Yuqori darajadagi interaktivlik. Ushbu metod talabalarni faollikka undaydi, chunki darsda ular faqat o‘qituvchidan emas, balki bir-biridan ham o‘rganadi.

Geografiya fanida “Flipped Classroom” metodini qo‘llashning bir nechta afzalliklari mavjud:

■ Talabalar darsdan oldin geografiya fani bo‘yicha konkret hudud yoki mintaqalar haqida ma‘lumot oladi. Masalan, biror-bir mintaqada iqlim o‘zgarishining oqibatlarini o‘rganish. Darsda esa bu ma‘lumotlarni guruhlar bilan tahlil qilib, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan ko‘rib chiqishadi. Bu metod talabalarga real hayotdagi masalalarni yechishda faol ishtirok etish imkonini beradi.

■ Talabalar videodars va interaktiv materiallar orqali geografik xarita, diagramma va statistik ma‘lumotlarni o‘rganadi. Darsda esa ushbu xaritalarni tahlil qilish va yangi mavzularni mus-

tahkamlashda simulyatsiya yoki amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish mumkin. Bu usul geografik tushuncha va atamalarni o‘rgatishda samarali bo‘ladi.

■ Talabalarga onlayn resurslar, virtual ekskursiya, simulyatsiya va boshqa innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkonini tug‘diradi. Masalan, geografiya darslarida talabalar virtual sayohatlar orqali dunyoning turli burchaklarini o‘rganishi mumkin. Bunda ular real vaqt rejimida geografik muammolar, masalan, iqlim o‘zgarishlari yoki ekosistemalar holatini kuzatib boradi.

■ Talabalar dars materiallarini uyda mustaqil ravishda o‘rganishi orqali o‘rganish jarayonida o‘zlarini mustaqil boshqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu o‘z navbatida, ularning o‘rganishga bo‘lgan mas‘uliyatini oshiradi.

■ O‘qituvchilar darsda faqat ma‘lumot berish bilan cheklanmaydi, balki talabalarining amaliy ishlari va mustaqil ta‘limini boshqaradi. Bu metod talabalarga o‘rganilgan materialni real hayotdagi masalalar bilan bog‘lash va tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

Shuningdek, ushbu metod o‘quvchilarni mustaqil o‘rganishdan tashqari, interaktiv va amaliy mashg‘ulotlar bilan ta‘minlaydi. Bu geografiya fani kabi amaliyot talab qiladigan fanlarda ayniqsa samarali bo‘ladi.

Biroq ushbu metod muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun talaba va o‘qituvchi onlayn resurslar va texnologiyalarga yetarlicha ega bo‘lishi kerak. Internetga ulanish sifati yomonligi yoki texnologik cheklovlar bu metodni samarali amalga oshirishda muammo tug‘diradi. Talabalar mustaqil ravishda materiallarni o‘rganishda qiyinchilikka duch kelishi mumkin. Shuning uchun o‘qituvchi dars materialini tushunarli va qulay tarzda taqdim etishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, “Flipped Classroom” metodi geografiya fanini o‘qitishda talabalarga mustaqil o‘rganish imkonini yaratadi va darsda faollikni oshiradi. Shu bilan birga, texnologik resurslarga bog‘liqlikni hisobga olgan holda ta‘lim jarayonini yanada samarali va interaktiv qilish imkoniyatini yaratadi.

Oybek ABDUMURODOV,

CHDPU “Geografiya” kafedrası mudiri, p.f.f.d., dotsent

Sinab ko'ring

DARSDA INTERAKTIV O'YINLARNI QO'LLAYMIZ

(Boshlang'ich sinflar uchun)



Zamonaviy pedagog innovatsion texnologiyalarni bilishi, ularni darsda qo'llashi kerak. Misol uchun, matematika darsida **“Olovni so'ndir”** interaktiv o'yini tashkillashtirish mumkin. Buning uchun doskaga olov ustiga misol (masalan: 65+5 yoki 48-10), suv tomchilarida esa uning javobi yoziladi. Agar javob to'g'ri bo'lsa, “suv” tanlanadi(olov o'chadi). Bundan maqsad qo'shish va ayirish ko'nikmasini mustahkamlash, tez va to'g'ri fikrlashni rivojlantirish. O'yinni guruh bo'lib yoki individual shaklda o'tkazish mumkin.



“Bilim eshigi” didaktik o'yinida doskaga eshik rasmi ortida bolalar qo'lida savol yozilgan rasm bo'ladi. O'quvchilar eshikni taqillatib savollarga javob beradi. O'yinning maqsadi o'quvchilarga mehmonga borish odobi, savollarga noodatiy javob berishni o'rgatish.

Tabiiy fanlar darsida **“Maymunlarni to'ydir”** interaktiv o'yinidan foydalanish samarali.




O'yinning maqsadi – o'quvchilarda yog'och va plastik jismlardan tayyorlangan jihozlar haqidagi bilimlarni mustahkamlash, atrof-muhitni to'g'ri idrok qilish ko'nikmasini shakllantirish, ekologik ongini rivojlantirish.

O'qish savodxonligi darsida **“Mazali desert”** interaktiv metodini qo'llasa bo'ladi.



Doskada mazali shirinliklar ustiga so'zlar yozilgan bo'ladi. Qulupnaylarda esa shu so'zlar ma'nodoshi keltiriladi. O'quvchilar desertni mevalar bilan bezatadi. O'yin maqsadi – o'quvchilarda og'zaki nutq va tafakkurni rivojlantirish, ma'nodosh so'zlar haqidagi bilimlarini mustahkamlash, kasb-hunarga qiziqtirish, izohli lug'atni xotirada saqlash.

Ona tili darsida harf va tovushlarni ajrata olish mavzusini o'yin orqali o'quvchilar xotirasida yaxshi saqlash mumkin. Masalan, **“Yong'oqlarni terib ol”** didaktik o'yini uchun olmaxon va yong'oqlar rasmini tayyorlaymiz.



Olmaxonlarga unli, undosh va harf birikmasi ishtirok etgan so'zlar yozilgan yong'oqlarni terishda yordam beramiz. Qaysi o'quvchi to'g'ri yiqqan bo'lsa g'olib hisoblanadi. Bu o'yinni guruhlariga bo'lgan holda olib borsak ham bo'ladi. O'yindan maqsad – o'quvchilar faqat eshitib yoki yozib emas, harakat va fikrlash orqali ham bilimni o'zlashtiradi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda bolalarga harakat, o'yin va musobaqalar katta motivatsiya beradi.

Zirola MUZAFFAROVA,
Romitan tumanidagi
1-maktabning oliy toifali boshlang'ich
sinf o'qituvchisi

Pedagogdan pedagogga

“Muammoli o'qitish” metodi (5-sinf, o'zbek tili)

Darslar qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tilining o'qitilishi muhim ta'limiy ahamiyatga ega. Bu ikki qardosh tilni qiyosiy o'rganish natijasida o'quvchi o'z ona tilini ham, o'zbek tilini ham puxta o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Jarayonda albatta ta'limiy metodlar katta yordam beradi. Shunday metodlardan biri **“Muammoli o'qitish”** metodidir.

“Muammoli o'qitish” metodi muammoli vaziyat yaratish bilan boshlanadi. Masalan, qoraqalpoq va o'zbek tillarini o'zaro qiyoslash orqali muammoli vaziyat yaratish. Bu usul deyarli barcha mavzularni o'rganishda qo'l keladi. O'qituvchi o'quvchilarga berilgan tovush(harf), so'z, so'z birikmasi, gap va matnlarni o'zaro qiyoslashni topshiradi. O'quvchilar egallangan bilimlariga tayangan holda ularning o'xshash va farqli tomonlarini mustaqil aniqlaydi. Chunonchi, *“O'ng va chap tomonda berilgan so'zlarni o'zaro qiyoslang, ularning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlang”* kabi.

Savol o'qituvchi yoki o'quvchilar tomonidan qo'yilishi mumkin. *“Nima uchun ko'chirga gap qo'shtirmoqqa olib yoziladi?”*, *“Nega kishilarning ism va familiyasi, shahar va qishloqlarning nomlari bosh harf bilan yoziladi?”* singari savollar o'rta tashlansa, o'quvchilar unga javob izlaydi.

Matnni o'qish va qo'yilgan savollarga javob izlash ham muammoli vaziyat yaratishning muhim nuqtalaridan sanaladi. Masalan, o'quvchilardan Berdaqning *“Bolan”* she'rini o'qish hamda qo'yilgan savol va topshiriqlarga javob izlash talab etilsa, ular she'r matni va mashq tarkibida berilgan gaplarni o'qib, javob izlaydi. Masalan, *“Berdaq G'arg'abay o'g'li “Bolan” she'rida yoshlarni nimaga da'vat qiladi? Va hokazo.*

Muammoli o'qitish jarayonida suhbat metodidan ham unumli foydalaniladi. Odatda suhbat vaziyatga qarab tashkil etiladi. Agar o'quvchilar qo'yilgan muammoni hech qanday tashqi yordamsiz o'zlari yecholsa, bunday holatlarda suhbatga ehtiyoj qolmaydi. Agar sinf o'quvchilari muammoni hal etishga qiynalsa, bunday holatlarda suhbat metodidan foydalaniladi. O'zbek tili darslarining samaradorligi ko'p jihatdan o'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlarni to'g'ri tanlashga bog'liq. Ilmiy-metodik adabiyotlardan ma'lumki, o'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlarni uch guruhga ajratish mumkin:

- qayta xotirlashga asoslangan metod;
- qisman izlanuvchanlikka asoslangan metod;
- izlanuvchanlikka asoslangan metod.

Bu metodlarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, muayyan sharoitda qo'llashni talab etadi. Qayta xotirlashga asoslangan metodlar o'quvchiga muayyan qiyinchilik yaratmaydi, u tayyor o'quv materiali bilan ish ko'radi. Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning 5-sinf o'zbek tili darslarida o'quvchilarga beriladigan ayrim topshiriqlar oldin egallangan bilim, malaka va ko'nikmalarni yangi sharoitda qo'llashni talab etmaydi, balki tayyor bilim, malaka va ko'nikmalarni xotirada tiklaydi, xolos. Masalan, o'zbek tili darslarida bajariladigan, ko'chirib yozish, o'rganilgan mavzu doirasida berilgan savollarga javob topish singari topshiriqlar qayta xotirlashga oid metodlarni qo'llashni taqozo etadi. Qisman izlanuvchanlik metodlari topshiriqlarni bajarishda qisman ijodiylikni talab qiladi. Chunonchi, o'zbek tilidan o'quvchilar bajaradigan topshiriqlar, berilgan namunalar yoki topshiriqni bajarish uchun o'tkaziladigan suhbatlar, o'qituvchi beradigan maslahatlar qisman izlanuvchanlik namunasi.

Nuqtalar o'rniga zarur harflar, kelishik qo'shimchalari, so'zlarni qo'yish, berilgan so'zga sinonimlar topish, gapdagi muayyan so'zni uning ma'nodoshi bilan almashtirish, gap yoki matnning maz-

munini saqlagan holda shaklini o'zgartirish, tayanch so'zlar yoki so'z birikmalari yordamida gaplar hosil qilish, matnlar yaratish singari topshiriqlar o'quvchidan qisman ijodiy yondashuv, izlanuvchanlikni talab etadi. Qoraqalpoq maktablarining 5-sinfida o'qituvchi o'rgatilayotgan o'quv materialining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni o'zni bilan ishga soladi. Agar sinf o'quvchilari aqliy faoliyat usullari (kuzatish, taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish va h.k.)ni bajarishga yetarli darajada o'rgatilmagan bo'lsa, unda qisman izlanuvchanlik yoki izlanuvchanlik metodlaridan foydalanish qiyin. Aqliy faoliyat usullarini bajara oladigan o'quvchilar berilgan til materiali (tovush(harf), so'z, so'z birikmasi, gap, matn)ni kuzata oladi, ularni qiyoslab, o'xshash va farqli tomonlarini aniqlaydi, o'rganganlaridan kelib chiqib, hukm va xulosalar chiqaradi. Demak, o'qitish metodini tanlash o'quvchilarning real o'quv imkoniyatlariga bog'liq. Real o'quv imkoniyati yuqori bo'lgan sinflarda ko'proq qisman ijodiy va ijodiy metodlarni ishga solishga to'g'ri keladi.

O'zbek tili darslarining samaradorligini ta'minlash ko'p jihatdan darslarni rang-barang usullarda tashkil etishga bog'liq. Keyingi yillarda o'qituvchilar amaliyotda *“Topqirlar bellashuvi”*, *“Bahs-munozara”*, *“Sirtqi sayohat”*, *“Ertak”* kabi metodlardan keng foydalanmoqda. Bu darslarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, jarayonni qiziqarli va samarali uyushtirishga yordam beradi.

Sharban ALLAMBERGENOVA,
Kegeyli tumanidagi
5-maktabning o'zbek tili fani
o'qituvchisi

Nuqtayi nazar

OLIY ATTESTATSIYA TIZIMI HAQIDA O‘YLAR

Hozirgi globallashuv davrida har qanday davlatning taraqqiyoti, uning iqtisodiy qudrati va xalqaro maydondagi raqobatbardoshligi, avvalo, ilm-fan va innovatsiyalarga tayanadi. Shu bois mamlakatimizda ilm-fanni rivojlantirish, ilmiy maktablarni mustahkamlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Keng ko‘lamli islohotlar natijasida ilmiy faoliyatni tashkil etish va boshqarishning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo‘yildi.

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) bu jarayonda markaziy o‘rin egallab, nafaqat ilmiy darajalarni rasmiylashtiruvchi organ, balki ilmiy faoliyat sifatini belgilovchi, uni muvofiqlashtiruvchi va strategik rivojlantirishini ta‘minlovchi muhim institut sifatida namoyon bo‘lmoqda.

So‘nggi vaqtda OAK faoliyati yuzasidan ham gohida asosli, ayrim paytlarda asossiz fikrlar yangramoqda. Xususan, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi prezidenti, hammamiz uchun hurmatli bo‘lgan Shavkat Ayupovning “Jadid” gazetasi muxbiri bilan bo‘lgan suhbat ilmiy hayotga befarq bo‘lmagan har bir ziyolini o‘yga soladi. Sirtidan qaraganda, akademik qahramonimizning kuyinishlarida jon bordek – qaysidir ilmiy muammoni hal qilish uchun emas, balki fan doktori bo‘lish uchungina yozilgan dissertatsiyalar kammi?! Soxta olimlarning birovga yozdirgan xom-xatala tadqiqotlarini pesh qilib, hammaga aql o‘rgatishlarini kim ko‘rmagan deysiz?... Ammo xususiy holatlardan umumiy xulosa chiqarishda ko‘pincha mantiq qoidalariga rioya etilmaydi. Nazarimda, muhtaram olimimiz ham shunday xatoga yo‘l qo‘ygandek. Yaxshisi, mazkur maqolada biz Shavkat Ayupov bilan bahsga kirishish barobarida Yangi O‘zbekiston sharoitida ilm-fan sohasida ochilayotgan yangi imkoniyatlarga ham e‘tibor qaratamiz.

Raqamlar yolg‘on gapirmaydi

Sh.Ayupovning asosiy da‘vosi – dissertatsiya himoyalari sonining keskin oshishi sifatsizlik belgisi degan fikrdir. Ammo bu xulosa bir tomonlama va asossizdir. 2000-yilda mamlakat aholisi 24 million kishi bo‘lgan bo‘lsa, bugun 38 millionga yetdi. Oliy ta‘lim muassasalari soni 62 tadan 207 taga, OTMlarga yillik qabul esa 50 mingdan 382 ming nafarga ko‘tarildi. Doktorantura izlanuvchilari ham mutanosib ravishda o‘tdi – bu hayotning mantiqiy talabidir.

Shu nuqtayi nazardan, dissertatsiya himoyalari sonining ortishi tanazzul emas, aksincha mamlakatning ilmiy salohiyatini mustahkamlashga intilayotgan jamiyatning tabiiy jarayonidir. Eng muhimi – har bir ishga qo‘yiladigan sifat talablari kuchaytirilgan, ilmiy natijalarni amaliyotga joriy etish majburiy mezonga aylantirilgan. 1997–2003-yillari ustozimiz Shavkat Ayupov OAKni boshqarganligini hisobga olsak, bu fikrga e‘tiroz bildirmaslar, deb o‘ylaymiz.

Nazariya va amaliyot uyg‘unligi: zamonaviy ilmnin asosi

Sir emaski, bugungi kunda dunyo ilm-fani rivojlanishida tubdan yangi paradigma shakllanmoqda. Sof akademik, nazariy bilim o‘zligicha maqsad bo‘lolmaydi – u amaliyotga, jamiyat ehtiyojiga, iqtisodiyotga xizmat qilmog‘i lozim. Bu fikr nazariy bilimlarni kamsitish emas – aksincha, uning ahamiyatini to‘laroq ro‘yobga chiqarish yo‘lidir.

Klassik fan tarixiga nazar tashlasak, Nyutonning gravitatsiya qonuni kema qurilishi va artilleriya sanoatini tubdan o‘zgartirgan; Pasterning mikrobiologiya tadqiqotlari tibbiyotning asosi bo‘lgan. Bugun ham holat shunday: sun‘iy intellekt sohasidagi nazariy ishlar bir necha oy ichida global texnologik mahsulotga aylanmoqda. Demak, nazariya va amaliyotning chegarasi tobora ingichkalashmoqda.

Mamlakatimizdagi ilmiy tadqiqot tizimi ham shu yo‘nalishda qayta shakllantirildi. Dissertatsiya ishlarida amaliy joriy etish natijalari majburiy hisoblanadi. Oliy ta‘lim muassasalarida kafedra va laboratoriyalarni real korxona va soha tashkilotlari bilan hamkorlikda ish yuritish amaliyoti kengayib bormoqda. Bu – tadqiqotchi nafaqat “mavzu topib” dissertatsiya yozishi, balki jamiyatning aniq bir muammosini hal etishga hissa qo‘shishi uchun ilmiy muhit yaratishni anglatadi.

Binobarin, dissertatsiya mavzularini hayotdan uzoqlashgan sof akademik tadqiqotlar bilan cheklamoq – yosh olimning ijodiy potensialini kesishdir. Zotan, ilm – hayot harakatidan tug‘iladi va o‘z navbatida hayotni o‘zgartiradi.

Ma‘naviyat fani: Yangi O‘zbekistonning yangi imkoniyati

Yangi O‘zbekiston sharoitida ilm-fan uchun ochilgan eng ko‘zga tashlanarli yangi imkoniyatlardan biri – ma‘naviyat sohasiga ilmiy asosda yondashish imkoniyati yaratilganidir. Bu – mamlakatimiz tarixida birinchi marta tizimli va akademik darajada ro‘y berayotgan jarayondir.

Ma‘lumki, ma‘naviyat masalalari uzoq yillar davomida ko‘proq umumiy tarbiyaviy-mafkuraviy nuqtayi nazardan ko‘rilib kelindi. Mavzuning murakkabligi, kengligi va ayni paytda jamiyatga bevosita ta‘sir ko‘rsatuvchi xususiyati unga an‘anaviy akademik metodologiyani to‘liq tatbiq etishni qiyinlashtirardi. Bugun esa vaziyat tubdan o‘zgardi.



Hozirgi paytda ma‘naviyat tarixi va nazariyasi, ma‘naviy tarbiya, ma‘naviy jarayonlar va texnologiyalar, shuningdek ma‘naviy merosni o‘rganish kabi yo‘nalishlarda dissertatsiya ishlari yozish va himoya qilish imkoniyati rasman yaratilgan. Bu – faqat nomenklatura kengayishi emas, balki falsafa va siyosatshunoslik, tarix va adabiyot, psixologiya va pedagogika fanlarining ma‘naviyat masalasi atrofida uyg‘unlashuvi, ya‘ni yangi ilmiy maydon shakllanishidir.

Nega bu shunchalar muhim? Chunki ma‘naviyat – xalqning o‘zligini, milliy ongini, tarixiy xotirasini va kelajakka yo‘naltirilgan qadriyatlar tizimini belgilovchi omildir. Bu sohani ilmiy tekshirish – nafaqat akademik, balki amaliy-ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Ma‘naviy tarbiya texnologiyalari maktab va oliy ta‘lim muassasalarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanilishi mumkin; ma‘naviy jarayonlarni tizimli o‘rganish esa siyosiy va ijtimoiy qarorlar uchun muhim asos yaratadi.

Bu yo‘nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar aniq bir narsani ko‘rsatadi: mamlakatimizda ilm-fanga kirish uchun eshiklar nafaqat kattalashdi, balki yangi eshiklar ochildi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar vakillari uchun bu o‘n yillar davomida sun‘iy to‘siqlar tufayli paydo bo‘lgan ehtiyojning nihoyat amaliy javob topayotganidan dalolatdir.

Dialektik qonun: miqdoriy o‘sishtan sifat sakrashiga

Mazkur jarayonlarni falsafiy nuqtayi nazardan baholash ham muhim metodologik ahamiyatga ega. Dialektikaning miqdoriy o‘zgarishlarning sifat o‘zgarishlariga o‘tishi qonuniga ko‘ra, har qanday tizim rivojlanishi ikki asosiy bosqichdan iborat: avval kengayish – ishtirokchilar, hajm, resurslar ortadi; so‘ng ma‘lum kritik nuqtadan keyin tizim yangi sifat darajasiga ko‘tariladi.

Bu universal qonuniyat tabiat, jamiyat va tafakkurning barcha sohalariga xosdir. Bugun biz mamlakatimiz ilm-fan tizimida aynan shu kritik nuqtaga yaqinlashayotganini ko‘rmoqdamiz. To‘plangan miqdoriy salohiyat OTMlar, doktorantlar, moliyaviy rag‘batlantirish tizimi – endilikda sifat yuksalishiga aylanmoqda.

Sh.Ayupov ana shu o‘tish jarayonini sifatsizlik deb ta‘riflamoqda. Ammo jarayonni yakunidan emas, o‘rtasidan baholash – eng keng tarqalgan metodologik

xatolardan biridir. Bino qurilayotgan paytda u hali noqulay ko‘rinadi, ammo bu binoning pishiq-mustahkam bo‘lmashligini anglatmaydi.

Ilmiy tadqiqot, ta‘lim va amaliyot: uchlikning kuchi

Zamonaviy ilm-fan tizimining poydevori uchta asosga quriladi: ilmiy tadqiqot, oliy ta‘lim va amaliyot. Ular bir-biridan ajratilgan holda samarali ishlay olmaydi.

Oliy ta‘lim muassasasi o‘zida faqat dars beradigan joy bo‘lib qolsa, u yoshlarni kechagina yozilgan darsliklar bilan ta‘minlovchi mexanizmga aylanib qoladi. Tadqiqot muassasasi faqat nazariy maqolalar ishlab chiqarsa, uning jamiyat uchun manfaati sezilmaydi. Amaliyot esa ilmiy asossiz rivojlansa, tasodifiy tajribalar to‘plamiga aylanadi.

Mamlakatimizda bu uch tarkibiy qismni birlashtirishga yo‘naltirilgan islohotlar tobora kengayib bormoqda. OTMlar va korxonalar o‘rtasidagi hamkorlik shartnomalari, amaliyot bazalari, hamkor laboratoriyalar, ishlab chiqarish muam-molari asosida dissertatsiya mavzulari belgilash tajribasi – bularning barchasi uchlik uyg‘unligi tamoyilini amalga oshirishga xizmat qilmoqda.

Aynan shu sababli, tadqiqotchilar sonining oshishi ham, ma‘naviyat kabi yangi sohalarida ilmiy yo‘nalishlarning paydo bo‘lishi ham – tizimning kengayish va mustahkamlanish belgisidir, zaiflik emas.

So‘ngso‘z o‘rnida

Maqolaning boshida ta‘kidlaganimizdek, Shavkat Ayupovning fikrlari, alohida olganda, tizimdagi ayrim muammolarga e‘tiborni qaratish nuqtayi nazaridan ahamiyatli bo‘lishi mumkin. Ammo obyektiv tahlil va xolis raqamlar u ko‘tarayotgan muammolarning aksariyati yoki mavjud emas, yoki OAK va tegishli organlar tomonidan allaqachon hal etilganini ko‘rsatadi.

Rivojlanayotgan tizimni doimo o‘tmish ko‘rsatkichlari bilan solishtirish – metodologik jihatdan noto‘g‘ri yondashuvdir. O‘tmish bilan solishtirish zarur, lekin shunda ham barcha shart-sharoitlar, aholi o‘shishi, OTMlar soni, iqtisodiy imkoniyatlar va jamiyatning yangi ehtiyojlari hisobga olinmog‘i lozim.

Yangi O‘zbekistonda ilm-fan tizimi kengaymoqda, yosh tadqiqotchilar uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda, ma‘naviyat kabi yangi sohalar akademik maqomga ega bo‘lmoqda, nazariya va amaliyot o‘rtasidagi to‘siqlar buzilmoqda. Bularning barchasi bir yo‘nalishni – O‘zbekistonni haqiqiy ilm mamlakatiga aylantirishni ko‘zlaydi.

Sof nazariy, akademik bilimlar qimmatli – inson tafakkurini charxlaydi, jahon ilm merosi bilan ulanishni ta‘minlaydi. Ammo ularning jamiyatga hissasi, amaliy hayotga ta‘siri bilan birgalikda o‘zlasha boshlaganda haqiqiy yutuq ko‘rinadi. Buni tushunish va shu ruhda ishlash bugungi o‘zbek olimining burchi va sharafigidir.

Ilhom SUVONOV,
falsafa fanlari doktori,
katta ilmiy xodim



O'qituvchiga yordam

“Aralashma” tipidagi masalalarni yechish uslubiyati

“Aralashma” tipidagi masalalarni yechish dolzarb va qiziqarli. Ushbu tipdagi masalalarni yechishda nimalarga e'tibor berish kerakligi haqida ma'lumot beramiz. Bu tipdagi masalalar o'quvchiga murakkab bo'lmisligi uchun shunday tipdagi masalalarning bir nechtasini yechib ko'rsatamiz.

1-masala. 20 kg qatiqda 35% yog' bor, 35 kg qatiqda 30% yog' bor. Ikkalasi aralashtirilganda qatiqda necha foiz yog' bor?

Yechish. Ushbu masalani quyidagi tartibda yechamiz:

$$\begin{array}{ccc} \boxed{35\%} & \boxed{30\%} & \boxed{x} \\ * & * & * \\ 20 & + & 35 = 55 \end{array}$$

Bundan quyidagini yoza olamiz:

$$20 * 35 + 35 * 30 = 55x$$

$$\text{Bunda } 700 + 1050 = 55x$$

$$\text{Yoki } 55x = 1750$$

$$\text{Bundan } x = \frac{175}{55} \approx 31\%$$

Demak, aralashmada $\approx 31\%$ yog' bor ekan.

Javob: $\approx 31\%$.

2-masala. Ikki xil modda yig'indisi 450 kg. Birinchisida 32% shakar bor, ikkinchisida 38% shakar bor. Ikkala aralashmada 32% shakar bor va ikki xil moddalar qanchadan miqdorga ega?

Yechish: masala shartiga ko'ra quyidagini hosil qilamiz. Birinchi modda x kg, ikkinchi modda 450-x kg.

$$\begin{array}{ccc} \boxed{32\%} & \boxed{32\%} & \boxed{32\%} \\ * & * & * \\ + & 450 - x = \end{array}$$

Buni quyidagicha yoza olamiz:

$$32 * x + 38 * (450 - x) = 32 * 450$$

$$\text{Yoki } 32x + 17100 - 38x = 15750$$

$$\text{Bundan } 17100 - 15750 = 38x - 32x$$

$$\text{Yoki } 6x = 1350$$

$$\text{Bundan } x = \frac{1350}{6} = 225$$

Birinchi xil moddadan 225 kg, ikkinchi xil moddadan 225 kg olingan ekan.

Javob: 225 kg; 225 kg.

3-masala. 15 l yog'ligi 6% bo'lgan sutga qancha 12% li sut qo'shilsa, qancha 8% li aralashma hosil bo'ladi?

Yechish: masala shartiga ko'ra quyidagini yozamiz:

$$\begin{array}{ccc} \boxed{6\%} & \boxed{12\%} & \boxed{8\%} \\ * & * & * \\ + & + & x = x + 15 \end{array}$$

Bundan quyidagi hosil bo'ladi:

$$15 * 6 + 12 * x = (x + 15) * 8$$

$$\text{Yoki } 90 + 12x = 8x + 120$$

$$\begin{array}{l} \text{Bunda } 12x - 8x = 120 - 90 \\ \text{yoki } 4x = 30 \end{array}$$

$$x = \frac{30}{4} = 7,5$$

Demak, 7,5 l 12% sut aralashtirilgan.

Javob: 7,5 l.

4-masala. 100 kg sirkada 80% kislota bor. Shunga 1900 kg suv qo'shilsa, necha foizli aralashma hosil bo'ladi?

Yechish: shartga ko'ra quyidagini hosil qilamiz:

$$\begin{array}{ccc} \boxed{80\%} & \boxed{0\%} & \boxed{x\%} \\ * & * & * \\ 100 & + & 1900 = 2000 \end{array}$$

Bundan quyidagini yozamiz:

$$100 * 80 + 1900 * 0 = 2000x$$

$$8000 + 0 = 2000x$$

$$\text{yoki } 2000x = 8000$$

$$\text{Bundan } x = \frac{8000}{2000} = 4$$

$$x = 4$$

Demak, 4 foizli aralashma hosil bo'lar ekan.

Javob: 4%.

5-masala. 500 l novvot qiyomida 95% shakar bor. Unga qancha suv qo'shilsa 50% aralashma hosil bo'ladi?

Yechish: shartga ko'ra quyidagini hosil qilamiz:

$$\begin{array}{ccc} \boxed{95\%} & \boxed{0\%} & \boxed{50\%} \\ * & * & * \\ + & x = x + 500 \end{array}$$

Bundan quyidagini yoza olamiz:

$$95 * 500 + 0 * x = 50(x + 500)$$

$$\text{Yoki } 47500 + 0 = 50x + 25000$$

$$\text{Bunda } 50x = 47500 - 25000$$

$$\text{Yoki } 50x = 22500$$

$$\text{Bunda } x = \frac{22500}{50} = 450$$

Ya'ni, 450 l suv qo'shilsa.

Javob: 450 l.

6-masala. 22 kg eritmada 36% tuz bor. Tuzning miqdori 56% bo'lishi uchun eritmaga qancha tuz qo'shish kerak?

Yechish: masala shartiga ko'ra quyidagini yozamiz:

$$\begin{array}{ccc} \boxed{36\%} & \boxed{100\%} & \boxed{56\%} \\ * & * & * \\ + & x = x + 22 \end{array}$$

Bundan quyidagi kelib chiqadi:

$$22 * 36 + 100x = (x + 22) * 56$$

$$\text{Yoki } 792 + 100x = 56x + 1232$$

$$100x - 56x = 1232 - 792$$

$$x = \frac{440}{44} = 10$$

Bundan

Demak, x=10 kg tuz qo'shish kerak.

Javob: 10 kg.

7-masala. Mashina radiatorida 6 l antifriz 30% li konsentrat bilan qo'shildi. Shundan keyin radiatoridan ma'lum miqdorda antifriz olinib, shuncha miqdorda 100% li konsentrat quyildi va radiatorga 6 l li 45% li konsentratli antifriz quyilgan. Qancha 100% li konsentratga ega bo'lgan antifriz quyilgan?

Yechish:

$$\begin{array}{ccc} \boxed{30\%} & \boxed{100\%} & \boxed{45\%} \\ * & * & * \\ 6-x & + & x = 6 \end{array}$$

Bundan quyidagicha ifoda tuzamiz:

$$(6-x) * 30 + 100x = 6 * 45$$

$$\text{Yoki } 180 - 30x + 100x = 270$$

$$70x = 270 - 180$$

$$\text{Bundan } 70x = 90$$

$$x = \frac{90}{70} = \frac{9}{7} \approx 1,4$$

Demak, 1,4 l 100% li konsentratli antifriz quyilgan.

Javob: $\approx 1,4$ l.

8-masala. 1 kilogramining narxi 3000 so'm va 4200 so'm bo'lgan ikki xil mahsulot aralashtirilib, kilogrami 3300 so'm bo'lgan 32 kg mahsulot hosil qilindi. Har bir mahsulotdan necha kilogramdan olingan?

Yechish: ushbu masala shartiga ko'ra quyidagilarni hosil qilamiz. Bu mahsulotlarning birini x, ikkinchisini y deb olamiz. Natijada ikki tenglama hosil bo'ladi:

$$\begin{array}{ccc} \boxed{x} & + & \boxed{y} = \boxed{32} \\ \text{va } x & + & y = \text{bulardan sistema tuzamiz.} \end{array}$$

$$\begin{cases} 300x + 4200y = 32 * 3300 \\ x + y = 32 \end{cases}$$

$$\text{Yoki } \begin{cases} 300x + 4200y = 105600 \\ x + y = 32 \end{cases}$$

Birinchi tenglamaning barcha hadini 600 ga bo'lib yuboramiz, natijada quyidagi sistema hosil bo'ladi:

$$\begin{cases} 5x + 7y = 176 \\ x + y = 32 \end{cases}$$

Sistemadagi ikkinchi tenglamani 7 ga ko'paytiramiz va hadma-had ayiramiz.

$$\begin{cases} 5x + 7y = 176 \\ - (7x + 7y = 224) \end{cases}$$

$$\text{Yoki } -2x = -48$$

$$\text{Bundan } -2x = -48$$

x+y=32 tenglamadagi x o'rniga 24 ni qo'yib y ni topamiz. 24+y=32

$$\text{Yoki } y = 32 - 24 = 8 \quad \text{Ya'ni } y = 8$$

Demak, 3000 so'mlik mahsulotdan 24 kg, 4200 so'mlik mahsulotdan 8 kg dan olingan ekan.

Javob: (24;8).

Adash AHMEDOV,
Urgut tumanidagi 8-maktabning
matematika fani o'qituvchisi

Sinab ko'ring!

JADID ADABIYOTINI O'RGATISHDA INNOVATSION YONDASHUV

O'tgan asr 50–60-yillari oxirida amerikalik psixolog Uilyam Gordon tomonidan ishlab chiqilgan sinektika usuli adabiyot olamida o'ziga xos o'ringa ega. “Sinektika” atamasi “xilma-xil elementlar birlashishi” degan ma'noni anglatadi.

Sinektika (Synectics) ishtirokchilarning intuitiv-ma'juziy, metaforik fikrlashiga asoslangan, jamoaviy ijodiy faoliyat usuli hisoblanadi. Mazkur usulda guruh ijodiy faoliyatini tashkil etishda standart yondashuvlardan voz kechishga e'tibor qaratiladi. Sinektor faqat atroflicha bilimlar bilan cheklanmay, his-tuyg'ularini ham yaxshi shakllantirgan bo'lishi kerak. Ko'pincha murosasiz ijodiy pozitsiyalar to'qnashuvda ekspert yoki advokat rolini o'ynashga mahoratli o'quvchi tanlanadi. Birinchi bosqichda yakuniy, to'liq g'oya va fikrlarni shakllantir-maslikka harakat qilish lozim.

Sinektika usulida quyidagi bosqichlar amalga oshiriladi:

- masalani shakllantirish;

“Bu qanday tuzilgan?” masalasini “Bu qanday tushuniladi?” deb qabul qilish;

• analogiyalarni keltirib chiqaradigan savollarni aniqlash;

- analogiyalarni qidirish ishlarini olib borish;

- muammoni hal qilish imkoniyatlarini qidirish.

Sinektika usulidagi tahlillar an'anaviy ta'limda og'zaki, yozma ko'rinishda mavjud bo'lgan. Endilikda ta'limda AKTdani foydalanish ehtiyoji va davr talabi

ushbu usulni tatbiq qilish imkoniyatlarini boyitdi. Bugun tasviriy vositalar va audiomateriallar orqali badiiy asarni sinektika usulida tahlil qilish mumkin.

1-bosqichda o'qituvchi o'quvchilarni uch guruhga bo'ladi va ularga quyidagi tasvirlardan olgan ilk taas-surotlariga izoh berishini so'raydi.

1-guruhga:



2-guruhga:



3-guruhga:



Shu kabi tasvirlar tarqatma tarzida guruhlarga taq-simlanadi. O'quvchilar birinchi tassavvurlarini bitta jumlada ifodalashi kerak. Birinchi urinishda, tabiiyki, muammoni qisman tushungan o'quvchining javoblari quyidagicha bo'lishi mumkin:

1-guruhning javobi: “Tabiat mo'jizasi”.

2-guruhning javobi: “Razolat”.

3-guruhning javobi: “Iztirob”.

Fantastik analogiya – buyuk g'oyalar, xayoliy vosi-talar, badiiy hissiyotlardan foydalanish analogiyasi de-makdir. O'qituvchi masalaga asta-sekin oydinlik kirita-di. Eng muhimi, o'quvchining erkin mulohazasi.

O'qituvchi tasvirlarda yashiringan ramziy o'xshash-likka e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi. Bu esa o'quvchilarni kutilmagan ta'riflar berish, ijodiy fikrlash-ga undaydi. Rangli tasvirlardagi yashirin ramzlar asarlar nomini ilg'ashga yetaklaydi. O'qituvchi asar audioma-terialidan parchani eshittirganda masala oydinlashadi. Javobga yaqinlashgan mulohazalar guruhda muhokama qilingach, quyidagi maqbul yechim taqdim qilinadi:

- 1-guruhning javobi: Cho'lponning “Go'zal” she'ri.

• 2-guruhning javobi: Behbudiyning “Padarkush” asari.

• 3-guruhning javobi: Abdulla Qodiriyning “O'tgan kunlar” asari.

Demak, tasvirlardagi ruhiyat talqini sinektika usu-lida tahlil qilingach, fikrlar umumlashtiriladi. Ushbu natijalar o'quvchilardagi fikrlash, tafakkur qirralarining xilma-xilligiga erishish, shu asnoda rang, ramz va mo-hiyatni teran anglash orqali yuzaga chiqadi. O'quvchi-larda izchillik, aniqlik va qat'iyatlilik shakllanadi.

Yulduz ESHMATOVA,

TDIU “O'zbek va rus tillari” kafedrası

dotsenti, PhD

KIMYONI NOODATYIY TARZDA O'RGANAMIZ

(7-, 8-, 9-sinf uchun)

Bugungi kunda ta'lim tizimi o'qituv-chidan nafaqat bilim berish, balki o'quv-chini o'ylashga, izlanishga va fan bilan yashashga o'rgatishni talab qilmoqda. Ayniqsa, kimyo kabi murakkab va mavhum tushunchalarga boy fanlarda an'anaviy darslar ko'pincha o'quvchilar uchun zerikarli bo'lib qolmoqda. Shu-ning uchun zamonaviy kimyo o'qituv-chisi doimo yangicha, noodatiy va qiziqarli metodlarni izlab topishi zarur.

Ana shunday samarali yondashuv-lardan biri – kimyo darslarida har bir o'quvchini kimyoviy element sifatida namoyon etish metodidir. Bu metod o'quvchilarni dars jarayonining pas-siv tinglovchisi emas, balki uning faol ishtirokchisiga aylantiradi.

Ushbu metodning mohiyati shundan iboratki, sinfdagi har bir o'quvchi ma'lum bir kimyoviy element sifatida tanlanadi. O'quvchilar boshiga kartondan yasalgan maxsus belgi taqib o'tiradilar. Bu belgida tanlangan elementning kimyoviy belgi-si, nomi, tartib raqami va atom og'irligi ko'rsatiladi. Karton ranglari esa element-ning elektron tuzilishiga mos ravishda ajratiladi: *s*-elementlar uchun qizil, *p*-ele-mentlar uchun sariq, *d*-elementlar uchun ko'k rangdan foydalaniladi.

Bunday rangli tasniflash davriy siste-mani vizual ravishda anglash imkonini beradi. O'quvchi o'zining qaysi blokka mansubligini ko'rib turadi va bu orqali elementlarning elektron tuzilishini sezi-larli darajada oson tushunadi.

Metodning yana bir muhim jiha-ti shundaki, o'g'il bolalar metallar, qiz bolalar esa metalmaslar sifatida bel-gilanadi. Bu o'quvchilarga metall va

metalmaslarning xossalarni jonli tarz-da anglash imkonini beradi. Masalan, metallar elektron beruvchi, metalmaslar esa elektron qabul qiluvchi sifatida sahnalashtirilganda, kimyoviy bog'la-nishlar mavzusi o'z-o'zidan aniq va tushunarli bo'lib qoladi.

Kimyoviy bog'lanishlarni o'rganish-da o'quvchilar bir-biri bilan “reaksiyaga kirishadilar”. Metall rolidagi o'quvchi elektron “beradi”, metalmas rolidagi o'quvchi esa uni “qabul qiladi”. Shu orqali ion bog'lanish, kovalent bog'la-nish, oksidlanish darajasi kabi tushun-chalar oddiy hayotiy harakatlar orqali tushuntiriladi. Natijada murakkab for-mulalar jonlanadi, kimyo tirik fan sifati-da namoyon bo'ladi.

Bu metod ayniqsa 7-sinf o'quvchi-lari uchun juda samarali. Kimyo fani-ni endi o'rganishni boshlagan bolalar uchun element belgilarini yodlash eng qiyin bosqichlardan biridir. Ammo o'zi “Na”, “O”, “Cl” yoki “Fe” bo'lib turgan o'quvchi o'z belgisini unutmaydi. Shu tariqa kimyoviy belgilar tabiiy ravishda xotirada saqlanadi.

Metodning yana bir afzalligi – dars-ning rang-barang va qiziqarli o'tishidir. Rangli kartonlar, harakat, rollar, o'zaro muloqot darsni jonlantiradi. Sinfdagi pozi-tiv muhit shakllanadi, fan qo'rquv emas, qiziqish uyg'otadi.

Shuningdek, bu yondashuv o'quvchi-larda jamoada ishlash, muloqot qilish, mantiqiy fikrlash va muammo yechish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Har bir “element” o'z vazifasini biladi va “reak-siya” natijasida qanday “modda” hosil bo'lishini tushunishga harakat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, kimyo fanini noodatiy tarzda o'qitish, xususan o'quv-chilarni elementlar sifatida namoyon etish metodi nafaqat bilimni mustahkam-laydi, balki fanga muhabbat uyg'ota-di. Bugungi kunda Yangi O'zbekiston uchun ijodkor, ilmiy fikrlaydigan, fan bilan yashaydigan yoshlar zarur. Bunday metodlar esa ana shunday yoshlarni tar-biyalashning muhim vositasidir.

Agar kimyo darsi rangga, harakat-ga va hayotga to'lsa, o'quvchi uchun u faqat fan emas, balki kashfiyotlar olami-ga aylanishi shubhasiz.

Kimyo ta'limida “jonli modellar” metodi: 8-9-sinflar uchun yangi didaktik yondashuv

7-sinfda o'quvchi kimyoviy ele-ment bilan tanishadi. 8-9-sinflarda esa u elementdan hosil bo'ladigan mod-dalar dunyosiga kirib boradi. Shuning uchun ta'lim metodikasi ham o'zgarishi lozim. Agar 7-sinfda o'quvchi “element” bo'lsa, 8-9-sinflarda u “**modda**”ga ayla-nishi kerak. Ana shu tamoyil asosida “jonli modellar” metodining ikkinchi bosqichi ishlab chiqildi.

Ushbu metodda 8-sinf o'quvchilari ga-logenlar, xalkogenlar va azot guruhchasi kabi elementlarni shunchaki nomi bilan emas, balki ularning eng ko'p uchraydigan birikmalari orqali o'rganadilar. O'quvchi-lar $NaCl$, HCl , NH_3 , H_2SO_4 , KNO_3 , $CaCO_3$ kabi moddalarni tanlab ularning formula-sini kartonga yozib, darsga modda sifatida keladilar. Har bir darsda o'quvchi o'zi tan-lagan moddaning qayerda uchrashi, qan-day olinishi, qanday xossalarga egaligi va

qayerda ishlatilishi haqida gapirib beradi. Shu orqali formula oddiy belgilar yig'in-disi bo'lib qolmay, balki real hayot bilan bog'langan bilimga aylanadi. Eng muhimi, formulalar majburiy yodlash emas, balki tabiiy xotira orqali mustahkamlanadi.

9-sinfda esa o'quvchilar metallar-ni chuqurroq o'rganib Fe yoki Cu kabi elementlardan tashqari Fe_2O_3 , $CuSO_4$, Al_2O_3 , $ZnCl_2$, $CaCO_3$ kabi moddalar orqali bilim oladilar. Har bir o'quvchi tanlagan moddasining sanoatda olinishi, kimyoviy reaksiyalari, amaliy qo'llani-lishi va ekologik ahamiyati haqida mus-taqil izlanadi. Bu jarayon o'quvchilarda tahlil qilish, axborot bilan ishlash, man-tiqiy fikrlash va taqdimot qilish ko'nik-malarini shakllantiradi. Natijada maktab kimyosi ilmiy dunyo bilan bog'lanadi.

Ushbu metod formulalarni tabiiy yod-lashni ta'minlaydi, kimyoni real hayot bi-lan bog'laydi. O'quvchini faol izlanishga undaydi, nutq va taqdimot madaniyatini rivojlantiradi. Darsda faollikni oshiradi, kimyoviy tafakkurni shakllantiradi ham-da fanlararo bog'lanishni kuchaytiradi.

Bu metodni respublika miqyosida joriy etish muhim. Chunki u katta mab-lag talab qilmaydi, maxsus texnika shart emas, har bir maktabda qo'llash mumkin. Natijasi tez ko'rinadi. O'qituv-chi ijodkorligini ochadi va eng muhimi o'quvchini fanga oshno qiladi. Ushbu yondashuv kimyoni quruq fan emas, bal-ki hayot bilan bog'langan tirik bilimga aylantiradi.

Dilfuza OTABOYEVA,

Mirzo Ulug'bek nomidagi

ixtisoslashtirilgan maktabning

kimyo fani o'qituvchisi

Tajriba

O'qish savodxonligini rivojlantirishning (Boshlang'ich sinflarda qo'llash uchun)

O'qish savodxonligi boshlang'ich bosqichda to'g'ri shakllanmasa, keyingi sinflarda fanlarni puxta o'zlashtirish jarayoni sezilarli susayadi. Shuning uchun o'qituvchining har bir darsi, har bir mashqi, har bir metodik yondashuvi o'quvchini matn bilan ishlash, fikrlash va savol berishga undashi lozim. PIRLS mazmunida o'qishning o'zi emas, o'qiganini anglash muhim. PIRLS talablari oddiy o'qishni emas, balki o'quvchining matn mazmunini anglashi, fikrlar o'rtasidagi bog'lanishni topishi, asosiy g'oyani ajratishi, dalil keltira olishi, o'z tasavvurini qo'shib izoh berishi, muallif niyatini sezishini talab qiladi. Demak, dars jarayoni matn bilan tanishish emas, balki matn ustida faol ishlashdan iborat bo'lishi kerak. Bu jarayonda o'qituvchining vazifasi o'quvchiga qanday o'qishni emas, o'qiganini qanday tahlil qilishni o'rgatishdir.

Matn bilan ishlashning PIRLSga mos asosiy yo'nalishlari:

1. **O'quvchini muntazam fikrlashga undash.** Boshlang'ich sinf o'quvchisi savol berishga o'rgatilsa, uning tafakkuri tabiiy ravishda kengaya boshlaydi. Shuning uchun dars jarayonida quyidagi savollar muntazam berilishi kerak: “Bu voqea nega shunday bo'ldi?”, “Qahramonning keyingi qadami qanday bo'lishi mumkin?”, “Bu joyda muallif nimani anglatmoqchi?”. Bu savollar o'quvchini matnни yodlash emas, tahlil qilishga undaydi.

2. **Matnni qatlamli o'qish:** PIRLSga mos o'qish jarayoni uch qatlamdan iborat:

■ **Mazmunni tushunish.** Voqeaning qachon, qayerda, nima uchun sodir bo'lganini aniqlash.

■ **Mazmunni tahlil qilish.** Sabab-oqibatni topish, qahramonning ruhiy holatini tushunish, uning harakatiga baho berish.

■ **Yashirin ma'noni ochish.** Muallif fikrida yashiringan ma'no, ijtimoiy g'oya, xulosa. O'qituvchi har bir qatlam bo'yicha savollar berib borsa, o'quvchi matn bilan ishlashning to'liq jarayonini o'rganadi.

3. **O'qish jarayonini jonlantiruvchi metodlar.**

■ **“Stikerli tahlil” usuli.** Har bir o'quvchi stikerga matn bo'yicha bittadan muhim fikr yozadi va sinf doskasiga yopishtiradi. Qolganlar shu fikr bo'yicha savollar beradi. Bu orqali tanqidiy fikrlash kuchayadi.

■ **“3 daqiqa – 3 xulosa” mashqi.** Matn o'qilgandan so'ng har bir o'quvchi uch daqiqa ichida uchta xulosa chiqaradi. Natijada asosiy g'oyani ajratish ko'nikmasi shakllanadi.

■ **“Dalil top” o'yini.** O'qituvchi matn bo'yicha fikr aytadi, o'quvchi esa matndan dalil topib isbotlaydi. Bu yo'l orqali mantiqiy fikr, matnga qayta murojaat qilish odati paydo bo'ladi.

O'qish savodxonligining 4 asosiy kompetensiyasi (PIRLS mezonlariga mos):

1. **So'z va iboralarni matndan tushunish.** O'quvchi notanish so'z ma'nosini matn yordamida anglay olishi kerak.

2. **Asosiy ma'lumotni ajratish.** Matndagi eng muhim fikrni tanlay olish PIRLSning asosiy talabi.

3. **Tahlil qilish va bog'lash.** Vaziyatlar, sabab-oqibat va voqealar o'rtasidagi aloqa aniqlanishi lozim.

4. **Baholash va munosabat bildirish.** O'quvchi matnga fikr qo'shishi, tanqidiy yondashishi talab etiladi.

Mirkatlar(surikatlar)

Mirkat 30 cm uzunlikdagi, koloniya bo'lib yashovchi, go'shtxo'r hayvon. Ular taxminan 14 yilgacha yashaydi. Koloniyalari 30 (ba'zan 50) tagacha hayvondan tashkil topadi, ular o'zaro ish taqsimoti qiladi va inlarining xavfsizligini ta'minlash uchun atrofini kuzatish, dushmanlardan ogohlantirish vazifalarini bo'lib olishadi. Mirkatlar asosan Janubiy Afrikaning Kalahari cho'lida yashaydi. Ularning asosiy dushmanlari burgut, lochin va ilonlardir. Bir mirkat koloniyasi o'rtacha 50 ta teshikdan iborat bo'lib, inlarining chuqurligi 2 metrgacha yetadi.

Mirkatlar har kuni 8 soatgacha vaqtни oziq izlash va kuzatishda o'tkazadi. Mirkatlar qurbaqa, kaltakesak, kichik ilon kabi sudraluvchilar va chayon, mingoyoq kabi hashorat-



lar bilan oziqlanadi. Ov payti juda hushyor bo'ladi. Yerdan to'plangan quruq tuproqni osongina qazib, uni parchalab yeyishadi. Ovga chiqqan mirkatlar koloniyasida kamida bir yoki ikki hayvon navbatchi bo'lib, xavfdan ogohlantirish uchun kuzatuvchilik qiladi. Oyog'i ustida tik turgan mirkatlar kuzatuv davomida har 2 soniyada qisqa tovush chiqarib, boshqa mirkatlarga hamma narsa joyida ekanligini bildiradi. Havo yoki quruqlikdan keladigan xavf payti bo'g'iq tovush chiqarib ogohlantirish beradi. Shu tarzda ovdagi mirkatlar xavfdan ogoh bo'lib, xavfsiz joyga qochib borishadi. Xavf payti yer ostidagi uylariga yugurib yashirinlashadi. Bir mirkat yer ostida yettita tunnel tarmog'i, 10 dan ortiq teshik qazishi mumkin. Olimlarning ta'kidlashicha, mirkatlar chayon kabi xavfli jonzoatlarni yeyishni kattalari tomonidan o'rgatilganidan keyin bilib oladi. Bundan tashqari, ular chayonning o'ldiruvchi zahariga qarshi immunitetga ega. Mirkatlar ijtimoiy hayvon bo'lib, bolalarini “bolalar bog'chasi” singari alohida hududlarda kattalari navbatchilik qilib tarbiyalaydi. Yosh mirkatlar xavfsiz muhitda ov qilish va dushmanlardan yashirinlashni o'rganadi.



*Eslatma: Savollarga javobni yuqoridagi matnga asosanib belgilang.

Quyidagi gaplarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

2. **Savol-javob (tushunish darajasi).**

a) Mirkatlar qanday ovqatlar bilan oziqlanadi?
b) Xavf payti mirkatlar bir-birlarini qanday ogohlantiradi?



d) Mirkatlar koloniyasida kuzatuvchilik vazifasi nima uchun kerak?

3. **Bo'sh joyni (kalit so'zlar bilan) to'ldiring.**

a) Mirkatlarning uzunligi taxminan _____cm bo'ladi.

b) Koloniyada odatda _____ tagacha mirkat yashaydi.

d) Mirkatlar _____ va _____ kabi hayvonlar bilan oziqlanadi.

4. **Matnga mos sarlavha tanlang (tahlil qilish).**

Quyidagilardan qaysi biri matnga mos keladigan sarlavha bo'lishi mumkin?

a) Afrikadagi kichik yirtqichlar

b) Yerosti qazuvchilari

d) Mirkatlarning ijtimoiy hayoti

e) Cho'l hayvonlari haqida qiziqarli faktlar

Qiziqarli topshiriqlar

1. **Mirkat koloniyasini chizib ko'rsating.**

Tasavvuringizdan foydalanib, mirkatlar koloniyasini chizing. Unda:



2. **Rolli o'yin: Mirkat hayoti.**

Sinfda kichik guruhlarga bo'linib, mirkatlar koloniyasining hayotini jonlantiring.

3. **Xavfsiz in loyihasi (yozma topshiriq).**

Tasavvur qiling, siz mirkatlar uchun yanada xavfsiz va qulay uy qurishingiz kerak.

► Uyning tuzilishini tasvirlab bering.

► Qanday qilib xavfdan himoya qilish imkoniyatini yaxshilaysiz?

► Yangi tuzilmangiz haqida kichik chizma yaratang.

zamonaviy modeli




Mirkatlar haqidagi matn tahlili shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari matnни o'qish jarayonida faqat faktlarni qabul qilmaydi, balki ular mazmunni tahlil qilish, asosiy g'oyani ajratish, sabab-natija bog'lanishlarini anglash va o'zining oldingi bilimlari bilan bog'lash kabi murakkab kognitiv jarayonlarni amalga oshiradi. Bu esa PIRLS xalqaro baholash markazida turgan kompetensiyalarga to'liq mos keladi. Matnda berilgan tabiiy misollar o'quvchilarda kuzatuvchanlik, mantiqiy ketma-ketlikni anglash, ekologik ong va ijtimoiy tafakkur kabi ko'nikmalarni kuchaytiradi. Hayvonlar jamoasining o'zaro hamkorligi, qo'riqlash tizimi va hayotiy moslashuvchanligi bolalarga matndagi detallarni izlash, muhim belgilarni ajratish va xulosa chiqarish imkonini beradi. Shunday qilib, mazmunan jonli, ilmiy asosga ega bunday matnlar o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini o'rtirish bilan birga, ularni xalqaro baholash mezonlariga tayyorlashning samarali didaktik vositasidir. PIRLS talablari ko'zlagan kompetensiyalar aynan shunday matnlar orqali tabiiy va bosqichma-bosqich shakllanadi.

**Gulbegim QURBONNAZAROVA,
Romitan tumanidagi
21-maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi**



Metodik tavsiya



“4 GA BO‘LINISH ALOMATI”

(4-sinf matematika darsida qo'llash uchun)

**O'quv jarayonini amalga oshirish
texnologiyasi**

Dars metodlari: suhbat, tushuntirish, izlanish, “Aqliy hujum” metodi, tarmoqlash, “Magnitli tasma” metodi.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, individual.

Dars jihozlari: darslik, tarqatma materiallar, savolli kartochkalar, didaktik materiallar, multimedia darslar, mavzuga doir plakatlal.

Baholash: o'quvchilar 5 ballik baho tizimida baholanadi.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: 4 ga bo'linish aloamati doir amallarni sodda va oson usullarda tushuntirish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarni dars davomida bir-birini hurmat qilish, boshqalarning fikrini tinglashga o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: amallar tahlilini bajarish orqali o'quvchilarning mustaqil va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

Dars bosqichi	Bajariladigan ish mazmuni	Vaqt
Tashkiliy qism	O'quvchilar davomati aniqlanadi.	2 daqiqa
Ehtiyojlarni aniqlash	O'rganilgan materiallarni takrorlash, sodda matematik amallarni bajarish.	3 daqiqa
Yangi mavzu bayoni	Mavzuga oid bilimlarni o'rganish, dam olish daqiqasini o'tkazish.	20 daqiqa
Yangi mavzuni mustahkamlash	Interaktiv usullardan foydalanish, multimediaidan foydalangan holda darsni mustahkamlash.	15 daqiqa
Baholash	O'quvchilarni darsdagi faolligi bo'yicha baholash.	3 daqiqa
Uyga vazifa	Darslikdan uyga vazifa va ularni yechish bo'yicha ko'rsatma beriladi.	2 daqiqa

1. **Darsning borishi:** darsga hozirlanish, o'quvchilarning darsga tayyorligini ta'minlash.


II. **O'tgan mavzuni mustahkamlash.** Uyga berilgan vazifalar parta oralab tekshiriladi. O'rganilgan mavzular yuzasidan qisqa takrorlash o'tkaziladi.

III. **Yangi mavzu bayoni: BBB metodi** asosida yangi mavzu bayon qilinadi. **Bilaman:** o'qituvchi o'quvchilarga quyi sinflarda o'rganganlari yuzasidan savollar beradi va javobini doskaga yozib boradi, o'quvchilar esa daftarga yozadi. **Bilmoqchiman:** o'qituvchi yangi mavzuni bayon qiladi. **Bilib oldim:** o'quvchilar egallagan bilimlarini mustahkamlaydi.

“Breynrayting” metodida barcha muammolar yozma shaklda doskaga yoziladi. Bu esa qobiliyatini ko'rsatishga qiyinaladigan ba'zi o'quvchilar uchun qulaylik yaratadi. Global muammolar o'quvchilar bilan birgalikda muammoning yechimi shaklida ishlanadi. Avval darsni o'zlash-

tirishga qiyinaladigan o'quvchilar doskaga chiqib muammolarni yozadi va guruh bilan birgalikda muammolar yechimi izlanadi. Bu metoddan foydalanganda muammolarni yechish variantlari imkon qadar ortadi. Boshlang'ich sinflarda bu usul orqali o'quvchilarning fikrlashi, yozma savodxonligi, aqliy fikrlashi rivojlantirilsa, tabiiy fanlarda modda xususiyatlari, laboratoriya jarayonlarini yozishda foydalaniladi.

Masalan, quyidagi misolni ko'rib chiqamiz.




Lolalar piyozlaridan ko'paytiriladi: har bir piyozdan bir nechta mayda piyozchalar paydo bo'ladi. Maftuna bilan Yulduz bir pushtadan lola ekishdi. Kuzda ular necha bosh piyoz hosil bo'lganini sanab chiqishdi.



Maftuna	Yulduz
3 bosh piyoz 4 boshdan piyozcha berdi.	4 bosh piyoz 4 boshdan piyozcha berdi.
5 bosh piyoz 2 boshdan piyozcha berdi.	6 bosh piyoz 3 boshdan piyozcha berdi.
4 bosh piyoz 1 boshdan piyozcha berdi.	2 bosh piyoz 2 boshdan piyozcha berdi.

3•4+5•2+4•1=26 4•4+6•3+2•2=38

Kelgusi yilda qizlarda nechta yangi lola boladi? 64 ta



**Sevara BAYBAYEVA,
Yangiyo'l tumanidagi
24-maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi**




Pedagogik tavsiya

GEOGEBRA:
MATEMATIKANI TUSHUNTIRISH VA
QIZIQTIRISHDA MUHIM QADAM

Bugun ta'lim tizimida matematika fanini o'qitishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki matematika nafaqat formulalar va hisob-kitoblar majmuyi, balki mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va muammoni hal etish madaniyatini shakllantiruvchi muhim fandır. Afsuski, ko'plab o'quvchilar bu fanni murakkab va zerikarli deb hisoblaydi. Ushbu muammoni hal etishda zamonaviy raqamli texnologiyalar, jumladan, GeoGebra dasturi muhim ahamiyat kasb etadi.

Matlab, Maple kabi dasturiy ta'minotlar yoki Python, Java kabi dasturlash tillaridan foydalanib jozibali animatsion rasmlar yaratish mumkin. Ular katta imkoniyatlarga ega, biroq ayrim dasturlar ham qimmat, ham ularni o'rganish ma'lum tayyorgarlik va vaqt talab qiladi. Python, Java kabi dasturlash tillaridan animatsion rasmlarni yaratishda foydalanish esa ancha mahoratni talab qiladi. Aynan ta'lim uchun mo'ljallangan GeoGebra dasturiy ta'minoti bepul bo'lishi bilan birga, maktab darsligidagi mavzularga doir animatsion rasmlarni oson tayyorlash mumkin.

GeoGebra dasturiy ta'minoti matematikani interaktiv, vizual va tushunarli tarzda o'rganish imkonini beradi va dunyoning barcha rivojlangan davlatlarida matematika fanini o'qitishda yordamchi vosita sifatida ishlatiladi. Asosiy ustunligi shundaki, unda algebra, geometriya, funksiyalar grafiklari va statistik elementlar yagona muhitda mujassamlashgan. O'quvchi bir vaqtning o'zida formulani ko'radi, grafikni kuzatadi va geometrik tasvir bilan ishlaydi. Natijada matematik tushunchalar va quruq nazariya emas, balki real tasavvurga




ega bo'ladi.

Ma'lumki, maktab matematikasidagi ko'plab mavzular – funksiya grafiklari, hosila, integral, geometrik almashtirishlar aynan tasavvur qilish orqali yaxshi o'zlashtiriladi. GeoGebra bu borada o'qituvchiga ham, o'quvchiga ham katta qulaylik yaratadi. Masalan, funksiya grafigidagi bitta koeffitsiyentni o'zgartirish orqali uning grafikda qanday aks etishini darhol ko'rish mumkin. Bu esa o'quvchida “nega?” va “qanday?” degan savollarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Aynan shu nuqta o'quvchining yanada chuqurroq o'rganishiga turtki beradi.


Dars jarayonida murakkab chizmalarni doskada qayta-qayta chizish o'rniga tayyor interaktiv modellar orqali tushuntirish mumkin. Bu nafaqat vaqtni tejaydi, balki darsni jonli va qiziqarli qiladi. Eng muhimi, o'quvchi mavzuni ko'rib, his qilib tushunadi.

O'quvchilar uchun esa GeoGebra mustaqil o'rganish madaniyatini shakllantiradi. Ular xatodan



1-rasm.

GeoGebra da funksiya grafisini slayder yordamida o'zgartirish jarayoni.



2-rasm.

Jismlarning

GeoGebra orqali dinamik o'zgartirilishi.

qo'rqmasdan tajriba o'tkazadi, turli variantlarni sinab ko'radi. Bu jarayonda tanqidiy fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalari rivojlanadi. Natijada matematika darsi qiziqarli intellektual mashg'ulotga aylanadi. Bu jarayonda GeoGebra animatsiyasidan foydalanishning ahamiyati beqiyosdir. O'quvchi harakatni yaxshi eslab qoladi. U eshitganini unutishi mumkin, ko'rganini eslab qolishi mumkin, o'zi bajarganini esa chuqur tushunadi. Aynan shu yerda **GeoGebra animatsiyasi** darsni “jonlantirib yuboradi”. Ko'p matematik tushunchalarni matn bilan tushuntirish mumkin, lekin **animatsiya bilan tushuntirish tezroq va chuqurroq bo'ladi**. O'quvchi ko'radi, kuzatadi va o'zi xulosa chiqaradi.

Bundan tashqari, internet orqali ko'plab GeoGebra loyihalarini topish mumkin. Bir marta tayyorlangan animatsiyani o'qituvchi yillar davomida ishlatadi, turli sinflarga oson moslashtiradi, murakkab chizmalarni doskada qayta-qayta chizishdan xalos bo'ladi. Oddiy rasm ham foydali, lekin animatsiya o'quvchini jarayonga tortadi. U slayderni siljitadi, tugmani bosadi, parametrlarni o'zgartiradi. Bu paytda o'quvchi passiv tomoshabin emas, **tajriba o'tkazuvchi, ishtirokchiga aylanadi**. Xato qilishdan qo'rqmaydi, chunki “buziladigan narsa yo'q” – hammasini qayta ishga tushirish mumkin!

Ayrim mavzular, masalan, funksiya grafiklari va ularning xossalari, hosila va uning geometrik ma'nosi, integralni yuzalar orqali tushuntirish, geometriyada aylantirish, siljitish, simmetriya, limit va yaqinlashish g'oyasi kabi mavzular ko'pincha aynan **tasavvur yetishmasligi** sabab o'quvchilarga qiyin tuyuladi. GeoGebra animatsiyasi ayniqsa shu kabi mavzularda juda samaralidir.

Mutaxassislar ta'kidlaganidek, kelajak ta'limi vizual, interaktiv va shaxsiylashtirilgan bo'ladi. GeoGebra ana shu yo'nalishda allaqachon o'z o'rnini topgan. Uni dars jarayoniga keng joriy etish matematika ta'limining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bugun GeoGebra nafaqat kompyuterda, balki telefon va planshetlarda ham ishlaydi. O'quvchi uyda mustaqil mashq qilishi, o'qituvchi esa tayyor materiallarni onlayn tarzda ulashishi mumkin.

Matematika darslarida GeoGebrani qo'llash haqida bir necha konferensiyalarda ma'ruzalar qildik. Bundan tashqari, o'qituvchilarga yordam bo'lishi uchun GeoGebra bo'yicha qator videodarslar tayyorlab <https://t.me/Ibragimov62a> telegram kanaliga joyladik. Ushbu kanal orqali o'qituvchi va o'quvchilarning GeoGebra da rasm chizish bo'yicha savollariga javob berishni ham maqsad qilganmiz.

G'ofurjon IBROHIMOV,
V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti bosh
ilmiy xodimi, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Metodik tavsiya

“Integratsion daqiqa” usuli


Sinf 3 guruhga bo'linadi. Har bir guruhga fanga doir nom beriladi va guruh sardori tayinlanadi. Guruh sardorlari o'qituvchi yoniga chiqib, stol ustida turgan narsalardan birini tanlaydi.



Tanbur



Kadr



Haykal

Topshiriq.

1. Tanburga xos sifat so'z turkumiga oid misollar yozing.
2. Tanbur so'zi ishtirokida so'z birikmalari hosil qiling.
3. Tanbur so'zi tarkibidagi tovushlarni tasniflab bering.

Usulning afzalliklari:

- oddiy savol-javobdan ko'ra qiziqarli tarzda o'tkaziladi;
- surat asosida fikrlash orqali integratsiya jarayoni amalga oshiriladi;
- o'tilgan mavzular mustahkamlanadi.

Ushbu usuldan 5–11-sinflar uchun barcha mavzularda darsning “O'tilganlarni takrorlash” qismida foydalanish mumkin.

“Doiradan tashqarida” surat usuli

Sinf guruhlariga bo'linadi. Har bir guruhga stakan idish hamda kattaroq likobcha beriladi. Konvertida esa ot turkumiga oid so'zlar yozilgan tarqatma qog'ozlar bo'ladi. Stakanga “Mavhum ot”, likobchaga “Aniq ot” deb yoziladi.

O'quvchilar stakanni likob ustiga qo'yib, konvert ichidagi tarqatmalarda yozilgan otlarni ikki guruhga ajratadi. Mavhum otni stakanga, aniq ot yozilgan tarqatmani likobchaga qo'yadi. Barcha guruhlariga shartni bajarish uchun ikki daqiqa vaqt beriladi. Shart so'ngida guruhlar idishlarini almashadi. Monitorda o'qituvchi tomonidan to'g'ri so'zlar ko'rsatiladi. Guruhlar bir-birining javoblarini monitor orqali tekshirib aniqlaydi.

Izoh: bunda doira deyilganda mavhum otlar solingan stakan, doira tashqarisi deyilganda likobchaga solingan aniq otlar tushuniladi.



Mavhum ot



Aniq ot

Quyidagi so'zlar yozilgan bo'ladi:

Sevinch	Qalam	Gunoh	Haqiqat
Mashina	Rubob	Samara	Doston
Qayg'u	Kompyuter	Dars	Motivatsiya
Dehqon	Sabr	Davr	Ko'ngil



Ona tili ta'limida rivojlantiruvchi metodlar darsni jonlantiradi

O'quvchilar shu tartibda stakanga mavhum otlarni joylashadi.

Usulning afzalliklari:

- o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi;
- grammatikadan olingan bilimlarni mustahkamlaydi;
- kollaboratsiya, kommunikativlik, kritik fikrlash tamoyillarini amalga oshiradi;

bir-birini baholash orqali guruhlarining bilimlari yanada mustahkamlanadi.

Ushbu usulni mavzularga bog'lab 5–11-sinflarning ona tili va adabiyot darslarida, shuningdek, boshqa fanlarda ham darsning "Mustahkamlash" qismida qo'llash mumkin.

"Antiq topshiriq" usuli

O'quvchilarga monitor orqali surat taqdim etiladi. Surat asosida topshiriq aytiladi. O'quvchilar javobni daftarga yozadi va og'zaki ravishda aytadi.



Topshiriq.

1. Suratdagi predmetlar asosida iboralar hosil qiling(8-sinf Ona tili darsligi asosida).
 2. Suratdagi predmetlarga mos sifat so'z turkumiga oid so'zlarni yozing(7-sinf "Sifatlar imlosi va talaffuzi" mavzusida).
 3. Fonetik hodisaga uchrashi mumkin bo'lgan predmetlarni yozing(5-sinf "Tovush o'zgarishlari" mavzusida).
 4. Surat asosida tasviriy matn tuzing(6-sinf "Tasviriy matn" mavzusida).
- O'quvchilar rasm asosida topshiriqni bajaradi. Quyi-da yana bir suratni taqdim etamiz:



Ushbu surat bo'yicha quyidagi topshiriqni berish mumkin. Surat asosida ikki ustun chizing: shaxs oti, narsa-buyum oti. Shaxs otlarini bir ustunga, narsa-buyum otlarini ikkinchi ustunga yozing(5-sinf Ona tili darsligi asosida tayyorlandi).

Usulning afzalliklari:

- o'quvchilarni tetiklashtiradi;
- ziyraklik, topqirlik sifatlarini shakllantiradi;
- fanlararo, kasblararo integratsiyaning amalga oshirishini ta'minlaydi;

ko'rib tushunish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Topshiriqni birinchi va to'g'ri bajargan o'quvchilar a'lo baho bilan baholanadi.

"SST" – "So'zdan savol tuz" usuli

Sinf uch yoki to'rt guruhga bo'linadi. Har bir guruhga bittadan mantiqiy savol yozilgan qog'oz beriladi. Guruhlar mantiqiy savolning javobini topib, shu so'z asosida ona tilidan grammatik qonun-qoidalarini qo'llab, savol tuzadi. Savollar tuzib bo'lingach, guruhlar qog'ozlarini almashadi va undagi savollarga tezkorlik bilan javob beradi.

1-guruh	2-guruh	3-guruh
• Boshsiz shlyapa, etiksiz oyog'i bor. • Bu nima?	• Qanchalik ko'p bo'lsa, shuncha kam ko'rasiz. • Bu nima?	• Avval buzib, keyin foydalanasiz. • Bu nima?

1-savolning javobi – qo'ziqorin. Guruh a'zolari quyidagicha savollar yozishi mumkin:

1. Qo'ziqorin qayi so'z turkumiga kiradi?
2. Tuzilishiga ko'ra qanday so'z?
3. Turdosh otning qaysi turiga kiradi?
4. Qo'ziqorin mavhum otm?
5. Qo'ziqorin so'zi qaysi usulda yasalgan?
6. Qo'ziqorin so'zidan so'z birikmasi hosil qiling.

Guruhlar shu tartibda topshiriqni bajaradi(8-sinf ona tili darsida "Ot" mavzusida qo'llandi).

Usulning afzalliklari:

- o'quvchilarni faollashtiradi;
- jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi;
- o'quvchilarning bilimlari tahlil qilinadi, shu asosda buni amalda qo'llashga yordam beradi.

Ushbu usulni darsning "O'tilganlarni takrorlash" qismida 7-, 8-, 9-, 10-, 11-sinflarda qo'llash mumkin.

"Globalifbo" usuli

Bu o'yinda o'quvchilar dual holatda, ya'ni partadoshlar sherik bo'lishadi. O'qituvchi har bir partaga tayyorlangan xarita suratini tarqatadi. Ularga topshiriq beriladi: xaritada davlatlar nomlarini alifbo tartibida yozing. Qaysi guruh shartni birinchi bo'lib to'g'ri bajarsa, shu guruh g'olib bo'ladi. To'g'ri javoblar monitor orqali o'quvchilarga ko'rsatiladi.



Ushbu xaritada atqli joy nomlarini alifbo tartibida quyidagicha yozish mumkin:

Andijon – Buxoro – Farg'ona – Guliston – Jizzax – Namangan – Navoiy – Nukus – Qarshi – Qoraqalpog'iston – Samarqand – Urganch – Xorazm(8-sinf Ona tili darsligi, "Atoqli otlar" mavzusida).


Usulning afzalliklari:

- o'quvchilarning ziyraklik, topqirlik sifatlarini rivojlantiradi;
- fanlararo, kasblararo aloqadorlikni yuzaga keltiradi;
- grammatik bilimlarni amalda qo'llashga yordam beradi.

Ushbu usulni darsning kirish qismida, "Mustahkamlash" bosqichida, 5-, 6-sinflarda qo'llash mumkin.

"Hayron tovushlar" usuli

O'qituvchi tomonidan kerakli tarqatmalar tayyorlanib, stolning ikki tarafiga qo'yiladi. O'quvchi so'zlar yozilgan tarqatmadan bittasini tanlaydi. Shu so'zdan qaysi tovush tushgan bo'lsa, shu tovushni boshqa tarqatmadan tanlab, og'zaki tarzda izohlab beradi. Javoblar umumiy tarzda tahlil qilib boriladi.



o	t	a	a	I	a
---	---	---	---	---	---

Bu usulni 6-, 7-, 8-sinf ona tili darslarida qo'llash mumkin. Har bir o'quvchi bergan javobiga ko'ra o'qituvchi tomonidan baholanadi.

Tabassum ROZIQOVA,
Asaka tumanidagi 42-IDUMI
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Sinab ko'ring

SUTLI TAOMLAR SIRI

(6-sinf, texnologiya. Servis xizmati yo'nalishi)

Mavzu: Sut va sut mahsulotlari turlari, sifatiga bo'lgan talablar, saqlanishi va muddati. 3-amaliy mashg'ulot: shirguruch pishirish.

Darsning maqsadi

Ta'limiy: sutning tarkibi, sifati va saqlash muddati haqida bilim berish. Shirguruch pishirish texnologiyasini o'rgatish. O'quvchilarga sutning tarkibi, pasterizatsiya va sterilizatsiya farqi, sut mahsulotlarining (smetana, tvorog, pishloq, qaymoq, qatiq) xususiyatlari haqida chuqur bilim berish.

Tarbiyaviy: qizlarda pokizalik, tejamkorlik va milliy taolamlarimizga nisbatan hurmat, mehr uyg'otish.

Rivojlantiruvchi: dasturxon bezashda "Art-pazandachilik" elementlarini qo'llash orqali estetik didni o'stirish.

Darsda qo'llaniladigan interak-

tiv metodlar

- "Sifat nazoratchisi" (Muam-moli vaziyat);
- "Zanjir" usuli (Bilimlarni mustahkamlash);
- "Master-shef" tanlovi (Amaliy qism uchun).

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism (5 daqiqa).

Sinfni 3 ta guruhga bo'lamiz (Guruhlarga "Sut", "Qaymoq", "Qatiq" deb nom beramiz).

Psixologik iqlim: "Bugun biz na-faqat oshpaz, balki taomlar dizayneri bo'lamiz!"

II. Yangi mavzu bayoni (15 daqiqa).

Nazariy qism: sutning sifati va to'g'ri saqlanishi haqida tushuncha beriladi.

Rasmlar orqali sut tarkibi tushun-tiriladi.

Sut ishlab chiqarish ikki xil usulda amalga oshiriladi

Pasterizatsiya qilingan sut



Kasal tug'diruvchi mikroorga-nizmlarni yo'qotish, saqlaganda turg'un-ligini oshirish maqsadida 65-85 °C haroratda termik ishlov berilgan sut. Yog'i olinmagan, yog'sizlantirilgan va saryog' sutlar pasterizatsiya qilinadi.

Sterilizatsiya qilingan sut



Pasterizatsiya qilingan sut tarkibiga ko'ra farq qilmaydi. Sterilizatsiya jarayoni avtoklavlarda 103-104 °C dan 118-123 °C gacha bo'lgan haroratdagi bosim bilan o'tkaziladi, bunda hamma mikroblar o'ladi.

Sut mahsulotlari. Sutni achitib ho-sil qilingan mahsulotlar sut-qatiq mah-sulotlari deb ataladi. Ularga smetana, tvorog va tvorog mahsulotlari, qatiq, kefir kiradi. Yoqimli ta'mi va xush-bo'yli, shifobaxsh va parhezboq xu-

susiyatlari, shuningdek, muhim oziqa-viy qiymati tufayli bu mahsulotlarga aholining talabi juda katta.

Sut mahsulotlari videorolik va past-dagi jadval orqali tushuntiriladi.

Sut mahsulotlari laboratoriyasi.

Mahsulot	Xususiyati va tarkibi	Saqlash muddati va shartlari
Smetana	Pasterizatsiyalangan va sut kislotasi hosil qiluvchi toza bakteriyalar bilan ivitilgan qaymoqdan tayyorlanadi.	8°C dan oshmagan haroratda, ko'pi bilan 36 soat saqlanadi.
Tvorog	Yog'i olinmagan yoki yog'sizlantirilgan sutdan olinadi, tarkibida 14-17% oqsil bor.	Eng to'yimli va shifobaxsh mahsulotlardan biri.
Qatiq	30-35°C haroratda 6 soat davomida achitish yo'li bilan tayyorlanadi.	Sovutkichda 3-5°C da 4-6 soat yetilguncha saqlanadi.
Qaymoq	Sut separatori ixtiro qilingunga qadar sut 10-12 soat davomida, past haroratda maxsus idishda tindirib olingan.	Asosan sariyog', smetana va muzqaymoq olish uchun ishlatiladi.
Pishloq	Yangi, qaymog'i olinmagan yoki normallashtirilgan sigir, qo'y yoki echki sutidan (yoki aralashmasidan) tayyorlanadi.	Yuqori oziqaviy qiymatga ega.

III. Amaliy mashg'ulot: "Shirguruch pishirish".

Ishni boshlashdan oldin xavfsizlik qoidalarini aytib o'tiladi.

Amaliy mashg'ulot uchun zarur bo'lgan jihozlar: gaz plitasi, qozon, kapgir va cho'mich, stakan, guruch uchun tog'oracha, qoshiq va likopchalar.

Kerakli masalliq: ta'bga ko'ra shakar, 50 g sariyog', 300 g guruch, 1 litr sut, tuz.

IV. Dasturxonga tortish.

"Master-shef" sharti: har bir gu-ruh shirguruchni pishirib bo'lgach, uni dasturxonga tortiq qilishda o'z mahoratin ko'rsatadi.

Masalan, shirguruch ustiga dolchin (koritsa) bilan naqsh chizish, rezavor mevalar yoki yong'oq bilan bezash mumkin.

Mustahkamlash va baholash.

"Beshta nima?" metodikasida o'quvchilarga savol beriladi. Masalan:

- Sutdan olinadigan 5 ta mahsulotni ayting?
- Sutning sifatini qaysi 5 ta belgidan bilsa bo'ladi?

- Shirguruch pishirishning 5 ta bosqichini sanang?

V. Dars yakuni.

Darsda faol qatnashgan, shirguruchni pishirishda texnologik intizomga amal qilgan va dasturxonni eng chiroyli bezagan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

Uyga vazifa: Har bir o'quvchi oila a'zolari uchun bayramona shirguruch taomini tayyorlab, rasmini yoki qisqa videosini guruhga tashlash.

Izoh: Dars ishlanmasi uchun tayyorlangan videorolik, taqdimot va dasturni pastdagi QR kod orqali olishingiz mumkin.



Sevara BUTANOVA,
Gurlan tumanidagi
5-maktabning
texnologiya fani o'qituvchisi



"Sifat nazoratchisi" o'yini: Dos-kaga turli sanalar yozilgan sut qut-lari rasmi qo'yiladi. Qizlar qaysi biri yaroqli va qaysi birining muddati o'tganini tezkorlik bilan aniqlashlari kerak.

Sut ishlab chiqarish ikki xil usulda amalga oshiriladi:

1. Pasterizatsiya - "Ehtiyotko-rona ishlov".

Bu usulda sutning foydali xususi-yatlari va vitaminlari maksimal dara-jada saqlab qolinadi, lekin uni uzoq saqlab bo'lmaydi. Maqsad - kasal-lik keltirib chiqaruvchi mikroblarni yo'qotish. Harorat: 65-85°C (qay-nash darajasiga yaqin).

Qaysi sutlar: yog'i olinmagan, yog'sizlantirilgan va seryog' sutlar. Natija: sutning ta'mi tabiiy qoladi, lekin saqlash muddati qisqa bo'ladi.

2. Sterilizatsiya - "To'liq zarar-sizlantirish".

Bu usulda sut juda yuqori harorat va bosim ostida qayta ishlanadi, nati-jada barcha mikroblar (hatto foydali-lari ham) o'ladi. Maqsad: sutni uzoq vaqt (oylab) buzilmasdan saqlash. Harorat: 103-123°C (qaynash nuqta-sidan yuqori). Jarayon: Maxsus quril-malar - avtoklavlarda bosim ostida o'tkaziladi. Natija: sutning saqlash muddati juda uzun bo'ladi, lekin vi-taminlar pasterizatsiyaga qaraganda kamroq qoladi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASI HARBIY MUSIQA AKADEMIK LITSEYI 2026-2027-O'QUV YILI UCHUN Damli va zarbli cholg'ular ijrochiligi yo'nalishiga QABUL E'LON QILADI!

Akademik litseyga umumiy o'rta ta'lim maktabining 4-sinfini tamomlagan nomzodlarning hujjatlari 1-iyundan 20-iyungacha qabul qilinadi.

Qabul komissiyasiga quyidagi hujjatlarni taqdim qilishlari lozim:

- nomzodning ota-onasi(ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) tomonidan akademik litsey direktori nomiga ariza(namuna beriladi);
- nomzodning ota-onasi(ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) tomonidan to'ldirilgan so'rovnom(namuna beriladi);
- nomzodning tug'ilganlik haqidagi guvohnoma nuxsasi;
- 086-U shakl bo'yicha tibbiy ma'lumotnoma;
- nomzodning tibbiy daftarchasi (063 shakl);
- 6 dona 3x4 cm o'lchamli, rangli, oq fonda fotosurat;
- nomzodning o'qish joyidan baholar tabelining nuxsasi;

➤ ota-onasining pasporti va nikoh guvohnomalari nuxsasi hamda ularning ish joyidan(ishsiz bo'lsa mahalladan) dalolatnoma.

Kirish imtihonlari 20–30-iyun kunlari o'tkaziladi.

Imtihonlar:

- Ona tili(diktant);
- Matematika(nazorat ishi);
- O'qish;
- Psixologik sinov(test);
- Ijodiy imtihon(musiqa).



Manzil: Toshkent shahri, Chilonzor tumani, "S" mavzesi.

Qo'shimcha ma'lumotlar uchun:
(71) 276-34-65, 276-92-36, 276-89-03;

vab-sayt: www.hmal.uz

Telegram kanal: https://t.me/MG_HMAL

Elektron pochta manzili: mg_hmal@umail.uz

Telegram: @MGHMAL_QABUL_2026/27

**HARBIY MUSIQA AKADEMIK LITSEYIGA
O'QISHGA MARHAMAT!**

Otabayev Iskandar Abdug'aniyevichning 13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'qitishning kredit-modul tizimini joriy etish texnologiyasi" mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/2025.27.12.Ped.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 29-aprel kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Chimboy-2, 96-uy.
Tel/faks: (71) 246-92-17, 246-90-37; e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz

Nishanbayeva Nilufar Yunusdjanovnaning 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya ixtisosligi bo'yicha "Bolalarda atopik dermatitning klinik-immunogenetik jihatlari: diagnostika va olib borish usullarini optimallashtirish" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12.Tib.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 1-may kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Akademik Yahyo G'ulomov ko'chasi, 74-uy.
Tel/faks (71) 207-08-30; e-mail: immunology@academy.uz

Baltabayeva Gulnoza Shuhrat qizining 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha "Giperprolaktinemiyaning minerallar almashinuvi va xomiladorlikka ta'siri" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/27.12.2025. Tib.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 5-may kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100109, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Forobiy ko'chasi, 2-uy.
Tel/faks: (78) 150-28-25, 150-28-28, (71) 214-83-11; e-mail: info@tma.uz

Razikova Iroda Razikovnaning 11.00.03 – Quruqlik gidrologiyasi. Suv resurslari. Gidrokimyo ixtisosligi bo'yicha "O'zbekiston daryolari gidrokimyoviy rejimining zamonaviy o'zgarishlari" mavzusidagi(geografiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.18/2025.27.12.Gr.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 30-aprel kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100052, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bodomzor yo'li, 1-tor ko'chasi, 72-uy.
Tel/faks: (71) 235-85-12, 237-13-19; e-mail: info@nigmi.uz

Hayitboyev Doniyor Komiljon o'g'lining 06.01.05 – Seleksiya va urug'chilik ixtisosligi bo'yicha "Qoraqalpog'iston sharoitida bosh piyoz (Allium cepa L.) ning hosildor, ertapishar nav namunalarini tanlash va yangi navini yaratish" mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining (himoyasisiz seleksiya yutug'i (ixtiro patenti) asosida taqdimoti) himoyasi Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Qx.14.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 29-aprel kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil 190100, Termiz shahri, Islom Karimov ko'chasi, 288-"a" uy.
Tel/faks: (76) 221-87-20, (71) 260-38-60;
vab sayt: www.tdmau.uz; e-xat: tmti@exat.uz; e-mail: info@tdmau.uz

JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO'YICHA MUTAXASSISLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI PEDAGOG XODIMLAR LAVOZIMLARIGA TANLOV E'LON QILADI

Professor lavozimiga: "Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati" kafedrasida bo'yicha;

Dotsent lavozimiga: "Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati" kafedrasida bo'yicha;

Katta o'qituvchi lavozimiga: "Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati" kafedrasida bo'yicha;

O'qituvchi lavozimiga: "Sport psixologiyasi, ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar" kafedrasida bo'yicha.

Tanlovda ishtirok etishni istaganlar quyidagi hujjatlarni taqdim qiladilar:

Institut rektori nomiga ari-

Manzil: Toshkent shahri, Shayxontohur tumani,

Ko'kcha darvozasi ko'chasi, 27-uy.

Telefonlar: (71) 242-30-87, 242-30-95; e-mail: institut@sportedu.uz

za. Arizaga kadrlarni hisobga olish bo'yicha shaxsiy varaqa va oliy ma'lumot to'g'risidagi diplomlar nuxsasi ilova qilinadi. Qatnashuvchilarda ilmiy daraja(shu jumladan, fan nomzodi, tegishli mutaxassislik bo'yicha xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (PhD) darajasiga yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga), ilmiy unvon, shuningdek, ilmiy ishlar va ixtirolar mavjud bo'lgan taqdirda ularga tegishli diplomlar, attestatlar nuxsalarini va ilmiy ishlar ro'yxatini, malaka oshirish to'g'risidagi guvohnomalarni taqdim etishlari kerak.

Eslatma: Tanlovda ishtirok etish uchun arizalar e'lon chop etilgan kundan boshlab bir oydan kechikmay berilishi kerak.

Xalqaro sharh

QORNING OLTII
QIRRASI

Amerika, Isroil va Eron urushi nafaqat dunyo xalqlarini, hatto, turli jamoalar va oilalarni ham ikkiga bo'lib yubordi. Aka Eron tarafdori bo'lsa, uka Amerikani yoki ota birini yoqlasa, o'g'il ikkinchisining yonini olib turganiga guvoh bo'lyapmiz. Bu mutlaqo tabiiy hol, chunki Rossiya va Ukraina orasida davom etayotgan qonli urushda ham, garchand adolat, haqiqat kim tomonida ekanligi aniq va ravshan ko'rinib turgan bo'lsa-da, bosqinchilar tarafini olgan, hatto, harbiy harakatlarda ishtirok etayotgan odamlar bor. Ma'lumotlarga qaraganda, hozir mingdan ziyod yurtdoshlarimiz Rossiya tomonida turib jang qilayotgan ekan. To'g'ri, ular balki iqtisodiy muammolarini hal qilish uchun shu yo'lga kirgandirlar?! Ammo nima bo'lganda ham, davlatimiz qonunlarini buzib, pul uchun xorij armiyasiga yollanish, buning ustiga bosqinchilar bilan bir safda turish o'zbeklar va har bir o'zbekistonlik uchun isnoddir. Albatta, oddiy kishilarning u yoki bu tomonni yoqlab gapirishi odatiy holat, biroq ayrim nufuzli ommaviy axborot vositalarining, jurnalistlar, publitsistlar, sharhlovchilar va blogerlarni turli tomonda turishlari bo'lmag'ur ishdur. Masalan, AQSHdagi "Fox news" nashri ushbu urushda Amerikaning olamshumul g'alabasi haqida ko'pirib toshib xabar tarqatayotgan bo'lsa, "The New York times" gazetasi bu urush Trampning og'ir mag'lubiyati ekanligini yozmoqda. Shu ma'noda, hech bo'lmasa jurnalistlar va publitsistlar har qanaqa holatda ham voqealarga xolis baho berishlari zarur. Bu borada tarafkashlik qilish, yolg'on xabarlar tarqatib, odamlar fikrini chalg'itish yumshoq qilib aytganda, kerak emas.

Hech e'tibor berganmisiz, yog'ib yongangizga qo'nayotgan qor parchalarining barchasi bir xil shaklda – olti qirrali yulduzchalarga o'xshaydi. Ulardagi naqsh va jimjimalar turli ko'rinishda bo'lishi mumkin, ammo barchasi bir xil – olti qirrali. Buning sirini olimlar zarrabin – mikroskop ixtiro qilinganidan keyingina kashf etishdi. Ma'lum bo'lishicha, suv molekullari aynan qor zarrasidek olti qirrali ekan. Fizikadagi ushbu qonuniyatning xalqaro siyosatga qanaqa aloqasi bor, deyishingiz mumkin. Ajablanarlisi shundaki, jamiyatdagi ayrim voqealar ham tabiat hodisalariga o'xshab ketadi. Tarixiy voqealar o'sha dastlabki kichik matritsa shakli negizida rivojlana boradi va oxir-oqibat molekula qor parchasiga, qorparcha katta qorga, qor esa ulkan uyumga, uyum dahshatli ko'chkiga aylanib, odamlar boshiga ko'p noxushliklar paydo qilganidek holat yuzaga keladi. Tarixdan olib ko'radigan bo'lsak, Oktabr inqilobidan so'ng sobiq sho'ro davlati ideologiyasi xususiy mulkchilikni qonundan tashqari deya e'lon qildi va kommunistik mafkurani butun dunyoga yoyishni asosiy maqsad qilib oldi. "Butun dunyo proletarlari birlashingiz!" degan chaqiriq har kuni, har soatda yangrab turdi. Inqilobiy mafkura qo'riqchilari bu borada mislsiz tadbirlarni amalga oshirib, xalqni pati yulingan tovuqqa o'xshatib qo'yishdi. Bu ishlarning oqibati yaxshilik bilan tugamasligini sezgan Vladimir Lenin zudlik bilan "Yangi iqtisodiy siyosat"i(NEP) ni joriy etib, yosh sho'ro davlati iqtisodiyotini halokat jarligidan uzoqlashtirgandi. Ammo uning o'rniga kelgan Iosif Sta-

lin iqtisodiyotni yana qayta kommunistik o'zanga soldi va to umrining oxirigacha xususiy mulkchilikka va tashqi dushmanlarga qarshi qat'iy kurash olib bordi. Undan keyin hokimiyat tepasiga kelgan Nikita Xrushchev ichki va tashqi siyosatda birmuncha o'zgarishlar qilgan bo'lsa-da, Brejnevning yangi siyosati uning islohotlari samarasini yo'qqa chiqardi. O'tgan asrning 80-yillariga kelib, mamlakat yana og'ir iqtisodiy inqiroz yoqasiga kelib qoldi. Bu borada islohotchi rahbar Mixail Gorbachyovning zudlik bilan amalga oshirgan tadbirlari ham mamlakatni tanazzuldan qutqara olmadi va buyuk bir saltanat halokatga yuz tutdi. Buning asosiy sababi: o'sha sho'ro imperiyasining dastlabki kunlaridan joriy etilgan siyosiy dasturi oxir-oqibat uni halokat sari bosh-

G'ALATI
ALABA

lab bordi. Eron bilan bog'liq voqealarda ham xuddi shunga o'xshash manzarani ko'ramiz.

DEMOTEOKRATIYA
UCHUN KURASH

1979-yili Eronda islom inqilobi sodir etilganiga qadar bu mamlakat dunyodagi barcha davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik aloqalarini o'rnatgandi. Hatto, bugungi qattol dushmani – Isroil ham Eronning yaqin hamkorlaridan biri bo'lib, uni zamomaviy texnika va texnologiyalar bilan ta'minlashda katta hissa qo'shib kelayotgandi. Hatto, hozirda atom qurolini yaratishga urinayotgan eronlik olimlarning ustozlari bir vaqtlar yadro fizikasini AQSH va Isroildagi laboratoriyalardan o'rganib kelishgandi. Eron kapitalistik dunyoning Yaqin Sharqdagi yaqin hamkorlaridan biri bo'lib, u yerda Amerikaning yirik harbiy bazalari, korxonalari joylashtirilgandi. Shoh hukumati mamlakatga g'arb madaniyatining kirib kelishiga keng yo'l ochib qo'ygandi. Uning yuritayotgan bu siyosatidan mamlakat ichidagi radikal diniy guruhlar, atrofdagi islomiy davlatlar, shimolda esa o'sha paytda qudrati kuchaygan sobiq SSSR turli sabablarga ko'ra qattiq norozi edilar. Ular barcha vositalarni ishga solib, Eronda shoh siyosatini izdan chiqarishga harakat qilardilar va 1979-yili g'arbparast monarxiya xalq g'alayonlari oqibatida ag'darib tashlandi. Shohning o'zi xalq g'azabidan qo'rqib, chet elga qochib ketdi. Shia ruhoniylari bo'sh qolgan hokimiyatni darhol o'z qo'llariga oldilar. Ular bu voqealarni "Islom inqilobi" deya atab, rahbarlik uchun o'zlarining diniy liderlari – oyatillo Humayniyni Parijdan Eronga keltirib rahbar etib tayinladilar. Ruhoniylar hokimiyatga chiqib o'rnashib olgach, davlat to'ntarishini amalga oshirishda ularga ko'maklashgan respublikachilar, demokratlar, kommunistlar, xullas, o'zlaridan o'zgacha fikrlaydigan barcha kishilarni quvg'in ostiga olib birma-bir yo'q qila boshladilar. Bir so'z bilan aytganda, doimo bo'lganidek, inqilob o'z farzandlarini yeya boshladi. Tarix takrorlanmaydi, qofiyalanadi degan qanotli ibora bu gal ham to'liq o'z tasdig'ini topdi. O'tgan asrning 30-yillari-

da bolsheviklar o'z safdoshlarini qanday qatag'on qilgan bo'lsalar, Eron ruhoniylari ham muxolif kuchlarni islom inqilobi qo'riqchilari yordamida ovozlari o'chirishga erishdilar. Mamlakatda hurfiylik, g'ayridiniy madaniyat, san'at, musiqa va hatto qo'shiq aytish ham taqiqlab qo'yildi. Gugush va Muinga o'xshash atoqli san'atkorlar quvg'in etildi. Mamlakatda erkaklarga alkogol, ayollarga esa boshini ochib yirish qat'iy taqiqlandi. Natijada o'zgacha fikrlaydigan millionlab eronliklar vatanni tark etishga majbur bo'ldilar. Bu ishlarning nazoratini sobiq SSSR KGBsidan andoza olib tuzilgan IIQK (Islom inqilobi qo'riqchilari korpusi) shafqatsizlik bilan olib bordi. Bunday bedodliklarga mamlakatdagi muxolif kuchlar qarshi chiqolmadilar, nega de-

sangiz, endi g'isht qolipdan ko'chib kech bo'lgan edi. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, hozirgi urush arafasida ham sodir etilgan xalq g'alayonlarining ming-minglab ishtirokchilari shafqatsiz yo'q qilindi yoki hibsga olindi. Ularning bor-yo'q gunohi: hukumatning olib borayotgan iqtisodiy siyosatiga qarshi norozilik edi. Haqiqatan ham, ruhoniylar rejimi mamlakat boyliklarining asosiy qismini xalq farovonligi uchun emas, balki zo'r berib qurollanishga sarflayotgan edi. Natijada Eron qisqa bir muddat ichida xalqaro cheklolarga qaramasdan, mintaqadagi eng kuchli harbiy davlatga aylandi. Atom-raketa qurollarini yaratish uchun jiddiy kirishildi. Tabiat va jamiyat qonunlari shundayki, har qanday harakat aksil-harakatni paydo qiladi. Diniy rahnamolar boshqaruvdagi nobop siyosat oxir-oqibat o'zining muqarrar inqirozini tezlashtirdi. Eski yil oxirlarida boshlanib ketgan xalq g'alayonlari Eronning tashqi siyosatidan shundoq ham norozi bo'lib yurgan katta kuchlarni ilhomlantirib jiddiy qurolli mojaroni keltirib chiqardi. Ba'zilar buni Uchinchi jahon urushi deya fikr bildirishmoqda. Ammo bunda koalitsiyalar mavjud emasligi va yirik davlatlarning qo'shilmaganligi ushbu ziddiyatni mintaqaviy mojaro deb atashga to'liq asos bo'la oladi. Endi uning sabablari haqida to'xtaladigan bo'lsak, yana tarixga murojaat qilishga to'g'ri keladi.

G'OLIBLAR VA
MAG'LUBLAR

Yuqorida yozganimizdek, shoh davrida Tehron AQSH va Isroil bilan o'ta yaqin aloqa bog'lagan edi. Eronda ming-minglab yahudiylar, amerikaliklar mamlakat xalq xo'jaligining turli sohalarida faoliyat ko'rsatardilar. Mullalar hokimiyatni o'z qo'llariga olgach, dastlabki qilgan ishlari: mamlakatdagi barcha xorij sarmoyasi bilan ishlaydigan korxonalarni millilashtirdilar. Bu tadbir sobiq SSSR boshliq sobiq sotsialistik mamlakatlarning olqishiga sazovor bo'ldi. Ammo bundan faqat birgina AQSH kompaniyalari va shirkatlari o'sha davr narxlar bilan hisoblaganda 200 milliard dollarlik zarar ko'rdi. G'arb mamlakatlari tomonidan berilgan sanoat uskunalari hamda harbiy

texnikalar ham to'liq yangi hukumat foydasiga o'zlashtirildi. Tabiiyki, bularning barchasi sarmoyadorlar tomonidan achchiq og'riq bilan qabul qilindi. Buning ustiga xalqning milliy-diniy hissiyotlarini junbushga keltirgan ruhoniylar ochiq aksilg'arbiy kayfiyatlarni targ'ib qildilar. "Amerikaga o'lim!", "Yo'qolsin Isroil!" singari jangovar shiorlar baralla yangray boshladi. AQSH "katta shayton", Isroil esa "kichik shayton" deya e'lon qilindi. O'tgan asrning 80-yillar oxirida oliy ruhoniyyat oyatillo Humayniy Mixail Gorbachyovga maktub yo'llab, birgalashib AQSH boshliq imperialistik dunyoga qarshi ittifoq tuzishni taklif qildi. Eronda dindorlar hokimiyati va avtoritar tizim yildan yilga mustahkamlanib, kuchayib bordi va alaloqibat, jamiyatni boshqaruvchi yagona yakkahokim kuchga aylandi. Garchand, mamlakatda rasman prezident, parlament va saylovlar instituti faoliyat ko'rsatsa-da, ular ishini yo'naltirib, oxirgi qarorni chiqaruvchi diniy rahbarning maqomi barchasidan ustuvor qilib qo'yilgan va hokimiyatlar mustaqilligi haqida gap bo'lishi ham mumkin emasdi. Bu holat uzoq yillar davomida mamlakat jipsligini ta'minlab turgan asosiy omil bo'lsa ham, Eronni asta-sekin demokratik dunyodan ihtalab qo'ygan o'ziga xos qafasga aylanib qolgandi. Xorijiy mamlakatlarni do'st va dushmanga ajratish va shu yo'sinda muomala qilish muvaffaqiyatsiz usul bo'lib, oxir-oqibat davlatni xalqaro maydonda yakkalanishiga va sanksiyalar bosimi ostida qolib ketishiga sabab bo'ldi. Agar e'tibor qaratgan bo'lsangiz, AQSH xuruji paytida biror-bir mamlakat – na Xitoy, na Rossiya, na Hindiston, na Pokiston va na boshqa biror yirik davlat Eronga yordamga shoshildi. Ular faqat urishayotgan tomonlarni murosas qilishga va harbiy harakatlarni to'xtatishga da'vat etib turishdi, xolos. Ana endi shunday holat yuzaga keldiki, har ikki tomon ham o'zini g'olib deb hisoblamoqda. Shu bois, bir-biriga yon bergisi kelmayapti. Eronning boshqaruv va harbiy tizimlari katta talofatga uchragan bo'lsa-da, inqilob qo'riqchilari raqiblariga zarracha bo'sh kelmoqchi emas. Ular bugunning o'zidayoq son-sanoqsiz piyoda qo'shinlarini jangga tashlab, mutloq g'olib bo'lishlarga qattiq ishonmoqdalar. Bu yo'lda qancha insonlarning qirilib ketishi xayollariga ham kelmayapti. Ammo ikkinchi tomon ham o'z talablaridan voz kechmayapti. AQSH Eronni yadro quroli yaratishdan tiyilib, boyitib qo'yilgan uran zaxiralarini topshirishini talab qilmoqda. Biroq eronlik mag'rur rahbarlar bu taklifni keskin rad etishmoqda. Endi bu talotumlarning boshida turgan Tramp haqida aytadigan bo'lsak, u o'zini o'ta yaxshi ko'radigan pixini yorgan odam. Uning na milliy, na diniy va na dunyoviy qadriyatlar bilan mutlaqo ishi yo'q. Agar foydasi tegsa, ashaddiy diktatorlar, dindorlar bilan ham kelishib keta oladigan dog'uli biznesmen. Uning hozirgi asosiy maqsadi – Amerikani yanada boyitib, dunyodagi liderlik maqomini yanada mustahkamlash va shu orqali tarix sahifalariga o'z nomini zarh-al harflar bilan yozdirish. Shu bilan birga unda yildan yilga kuchayib borayotgan Xitoyning piligini biroz pasaytirib qo'yish niyati ham yo'q emas. Xitoyni energiya resurslari bilan ta'minlab turuvchi asosiy manba esa Erondir. Ushbu maqsadlar yo'lida u hatto, shayton bilan ham kelishuvga tayyor. Ammo yo'lga g'ov bo'ladigan har qanday to'siqni ayamay yo'q qilib tashlashdan sira tap tortmaydi.

Xudoyberdi KOMILOV,
siyosiy sharhlovchi



Avezova Guloyim Sattarovnaning 14.00.09 – Pediatriya hamda 14.00.29 – Gematologiya va transfuziologiya ixtisosliklari bo'yicha “Bolalarda gemorragik vaskulitning klinik va immunogenetik jihatlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.25.Tib.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 5-may kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100109, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Forobiy ko'chasi, 2-uy.
Tel/faks: (78) 150-28-25, 150-28-28, (71) 214-83-11; e-mail: info@tma.uz

Burxonov Sherzodbek Muxammadbobir o'g'lining 09.00.03 – Falsafa tarixi ixtisosligi bo'yicha “Martin Xaydegger falsafasida inson konsepsiyasi” mavzusidagi(falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.01.07 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 30-aprel kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 246-08-96; e-mail: devonxona@nuu.uz

Nazarov Maxsud Abduqodirovichning 09.00.04 – Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo'yicha “Jamiyatda ekologik ong va madaniyatni rivojlantirishning axloqiy tamoyillari (ijtimoiy-falsafiy tahlil)” mavzusidagi(falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.01.07 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 30-aprel kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 246-02-24, 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Mamatkulova O'g'iljon Eshmirza qizining 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (rus tili) ixtisosligi bo'yicha “Bo'lajak o'qituvchilarning rus tili bo'yicha kasbiy kompetentligini platforma yordamida takomillashtirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.31.01.Ped.45.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 24-aprel kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, G-9 “A” mavzesi, 21-uy.
Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: uzdjtu@uzswlu.uz

Kasimova Iroda Baxtiyar qizining 14.00.09 – Pediatriya ixtisosligi bo'yicha “Sistem boshlanuvchi yuvenil artritning kasallik spetsifik markerlari va vitamin D statusiga bog'liq holda bolalarda kechishi va davolash xususiyatlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 28-aprel kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy.
Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashmeduni@gmail.com

Xudayberdiyev Asomiddin Kurbonkulovichning 09.00.04 – Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo'yicha “O'zbekiston uzluksiz ta'lim tizimida yoshlar axborot madaniyatini takomillashtirishning ijtimoiy-falsafiy tahlili” mavzusidagi(falsafa fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.01.07 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 2-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 246-08-96; e-mail: devonxona@nuu.uz

Almatov Baxrom Tuxtamuratovichning 06.01.05 – Seleksiya va urug'chilik ixtisosligi bo'yicha “Pomidorning pushtirang nav va duragaylari seleksiyasi uchun boshlang'ich manba yaratish” mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Qx.14.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 25-aprel kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 190100, Termiz shahri, Islom Karimov ko'chasi, 288-“a” uy.
Tel/faks: (76) 221-87-20, 260-38-60;
vab-sayt: www.tdmau.uz; e-xat: tmti@exat.uz; e-mail: info@tdmau.uz

Karshiyeva Saodat Xurramovnaning 06.01.05 – Seleksiya va urug'chilik ixtisosligi bo'yicha “Kotovnik, mayoran, melissa ekinlarining xo'jalik muhim belgilarini baholash va O'zbekistonning janubiy sharoitida introduksiya qilish” mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Qx.14.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 25-aprel kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 190100, Termiz shahri, Islom Karimov ko'chasi, 288-“a” uy.
Tel/faks: (76) 221-87-20, 260-38-60;
vab-sayt: www.tdmau.uz; e-xat: tmti@exat.uz; e-mail: info@tdmau.uz

Pardayev Elshod Alisher o'g'lining 03.00.09 – Umumiy genetika ixtisosligi bo'yicha “Ingichka tolali g'o'zaning tur ichida duragaylash asosida yangi genotiplar va nav yaratish” mavzusidagi(biologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining (himoyasiz ixtiro patenti (seleksiya yutug'i) asosida taqdimnomasi) himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.01/2025.27.12.B.04.05 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 24-aprel kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy.
Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@umail.uz

Abdiyeva Nargiza Rustamovnaning 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya ixtisosligi bo'yicha “Chala tug'ilgan chaqaloqlarda oziqlanish turiga ko'ra immunometabolik holatning o'ziga xos xususiyatlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12.Tib.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 28-aprel kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Akademik Yahyo G'ulomov ko'chasi, 74-uy.
Tel/faks (71) 207-08-30; e-mail: immunology@academy.uz

Oloqov Asliddin Faxriddin o'g'lining 14.00.27 – Xirurgiya hamda 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya (tibbiyot fanlari) ixtisosliklari bo'yicha “Yarali kolitning yiringli-yallig'lanish asoratlarini bashorat qilishning klinik va immunologik jihatlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.03 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 28-aprel kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Olimova Dildora Vohid qizining 14.00.21 – Stomatologiya (tibbiyot fanlari) ixtisosligi bo'yicha “Gemodializdagi bemorlarda stomatologik kasalliklarni davolash samaradorligini takomillashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 5-may kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Radjabov Alisher Islomovichning 14.00.21 – Stomatologiya (tibbiyot fanlari) ixtisosligi bo'yicha “Qisman tishsizlikda og'iz bo'shlig'i anatomo-funksional va mikrobiologik holatini inobatga olib tish protezlarini tanlash” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 5-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Mingbayev Raxim Xujayevichning 09.00.04 – Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo'yicha “Xalqaro gumanitar huquqda ekologiyaning ijtimoiy-falsafiy masalalari” mavzusidagi (falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Dsc.03/2025.27.12.F.01.07 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 2-may kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 236-46-55; e-mail: nauka@nuu.uz

Djurabayeva Dilafruz Ergashbayevnaning 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlari, sog'lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha “Oliy ta'lim muassasasi o'qituvchilarining korreksion vositalar orqali harakat faolligini oshirish samaradorligi” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28/2025.27.12.Ped.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 25-aprel kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100202, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Yangi O'zbekiston ko'chasi, Olimpiya shaharchasi.
Tel/faks: (71) 242-30-87; veb-sayt: https://uzjtsiti.uz; e-mail: jtsiti@sport.uz.

Rajabov Shahboz Xolmamat o'g'lining 04.00.14 – Foydali qazilmalarni boyitish ixtisosligi bo'yicha “Xondiza koni polimetall rudalaridan rux boyitmasini ajratib olish texnologiyasini takomillashtirish” mavzusidagi(texnika fanlari falsafa bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.T.17.04 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 25-aprel kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy.
Tel/faks: (75) 224-02-89, 224-13-95; e-mail: kstu@kstu.uz

Axmedov Madatjon Sevdiyor o'g'lining 05.02.01 – Mashinasozlikda materialshunoslik. Quymachilik. Metallarga termik va bosim ostida ishlov berish. Qora, rangli va noyob metallar metallurgiyasi ixtisosligi bo'yicha “Mis ishlab chiqarish sanoati chiqindilari tarkibidan qimmatbaho metallarni ajratib olishni tadqiq qilish va texnologiyasini ishlab chiqish” mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.T.17.04 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 25-aprel kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy.
Tel/faks: (75) 224-02-89, 224-13-95; e-mail: kstu@kstu.uz

Raximov Bexruz Abdurashid o'g'lining 06.01.05 – Seleksiya va urug'chilik ixtisosligi bo'yicha “G'o'za seleksiyasida tola chiqimi va sifati yuqori boshlang'ich ashyo yaratishda turlararo duragaylashning ahamiyati” mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 30-aprel kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60;
vab-sayt: www.tdau.uz; e-xat: tdau@exat.uz; e-mail: tuag_info@edu.uz



NIYAT

Javohir SINDOROVGA bag'ishlayman!

Yer sharining uchdan bir qismi
Turganida Bobom qo'lida.
Ne bir shohlar qaltirab jismi
Bosh egdilar uning yo'lida!

Shaxmatda ham Shoh edi Temur,
Ketgan omad

qaytmog'i ham bor...

Jahon tojin boshingga Yurtim
Kiygizadi Javohir Sindar!

Olam, tinch bo'li!

Olam, turgin tik!

To'xtamasin zakovat jangi...
Daholikka da'vogar o'zbek
O'zgartirar dunyoning rangin.

Kurashadi oq-qora ochun,
O'ng-u so'lda uchar adovat.
Ikki rangga bo'linib nechun
Gul bargida titraydi hayot?!

...Dilga tushdi

chaqmoqlar shahdi,
Uyg'onmoqda ulug'lar yodi!

Dunyo, yo'l ber! G'alaba ahdi
Ot surmoqda Temur avlodi.

Olam qotdi vaqt ummonida:
"Bu O'g'lonni to'xtatar qay zot?!"
Ajdodlarim uning qonida
Zafar o'tin yoqmoqdalar shod!

Hayot – shaxmat! Yo'li oq-qora!
Goho titrar hovuchda jonim...
Parvardigor, shu yo'llar aro
G'olib o'tsin O'zbekistonim!

Qo'chqor NORQOBIL



Sinab ko'ring

O'quvchi darsda nima uchun zerikadi?

(Boshlang'ich sinflar uchun)

Bola boshlang'ich sinfda o'qishni boshlar ekan, maktab muhitiga moslashgunicha birmuncha vaqt ketadi. Ya'ni o'quvchi o'z qobiliyatidan kelib chiqib, qiziqishlari bo'yicha darslarga yondashadi. Maktabga adaptatsiya jarayoni murakkab bo'lib, ushbu vaqt oralig'i pedagogdan katta mahorat talab etadi.



Boshlang'ich sinf o'quvchilari-ning ayrimlaridan "Darsda zerikdim", "Maktabga bormayman", "She'r yodlashni xohlamayman" kabi jummalarni ko'p bora eshitamiz. Buning sababi nimada deb o'ylaysiz? Dars vaqtida o'quvchiga tinch o'tirish va joyidan turmaslikni buyuramiz. Aynan mana shu taqiq bolaning darsdan zerikishiga olib keladi. Shu bois, o'tilayotgan har bir mavzuga mos ravishda harakatli o'yinlar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi o'zida ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishi kerak. Qolaversa, aynan tayyor metodlar bo'lishi shart emas, o'z qobiliyatlaridan kelib chiqib darsdagi mavzu uchun metodlar yaratishi mumkin. Masalan:

- "O'ng qo'l-chap qo'l";
- "Nishonga ol";
- "Xursand-xafa qarsak" –

kabi harakatli o'yinlar darsda bola diqqatini jamlaydi, jismonan te tiklashtiradi. Bundan tashqari, bolaning keyinchalik ham fikrini erkin ayta olishi jamoaga oson qo'shilishiga yordam beradi. Ayniqsa, tabiatga taalluqli mavzu o'tilayotganda darsning muayyan qismini tabiat qo'ynida o'tkazish mumkin.

Unutmasligimiz lozimki, bir xil bolani tez zeriktiradi, ishtiyoqini pasaytiradi. Unga sifatli ta'lim berish uchun tashqi omillarni ham nazardan qochirmaslik lozim.

- "Rangli barmoqchalar";
- "O'zingni bahola!";

Hilola BOZOROVA,
Yashnobod tumanidagi
342-maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,
O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149 150. V-6113. Tiraji 6878.

Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan.
Qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

Tel/faks: (55) 512-01-50



"Ma'rifat"dan
materiallarni ko'chirib
bosish tahririyat
ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqiriz
qilinmaydi va mual-
lfiga qaytarilmaydi.

Mobil ilovani
yuklab olish uchun
ushbu QR-kodni
skanerlang:

(t) – tijorat belgisi.



Dizayner: Malohat Toshova.
Navbatchi muharrir: Faxriddin Rahimov.
Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

MANZILIMIZ:

100099, Toshkent shahri,
Darvozakent ko'chasi, 60-uy.
Veb-sayt: www.marifat.uz

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa
ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri,
Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.